



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**



**ORGANIK KIMYO FANIDAN
USLUBIY QO'LLANMA**



TOSHKENT 2014

**«Organik kimyo» fanidan uslubiy qo'llanma. Tuzuvchilar:
Eshmuxamedov M.A., Muminov K.M, Badriddinova F.M.,
Isroilova G.B., Maxmanov D. –Toshkent, ToshDTU, 2014. -160 b.**

**BBK 24.2
O-64
UDK 547**

«Organik kimyo» fanidan uslubiy qo'llanma Toshkent davlat texnika universitetining “Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi”, “Atrof-muhit muhofazasi” va “Biotehnologiya” ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha tahsil olayotgan bakalavriat talabalari uchun mo‘ljallangan.

ToshDTU ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga asosan chop etildi.

**Taqrizchilar: O‘zMU, k.f.n., dots. Nurmanov S.E.
ToshDTU, t.f.n., dots. Jalilov A.**

© Toshkent davlat texnika universiteti, 2014

SO‘Z BOSHI

Ushbu organik kimyodan amaliy ishlar qo‘llanmasi kimyoviy texnologik, neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi o‘quv yurtlari talabalariga mo‘ljallangan. Bu qo‘llanma talabalarning organik kimyodan muhim laboratoriya ishlarini bajarishni o‘zlashtirish asosida tuzilgan.

Qo‘llanma boshida talabalar laboratoriya ishlarini bajarishdan avval bilishlari zarur bo‘lgan «kimyo laboratoriyasida» ishlash texnika xavfsizligi qoidalari keltirilgan. Keyingi bo‘limda esa moddalarni tozalash usullari keltirilgan. Organik birikmalar element tarkiblarini sifat va miqdoriy tahlil qilish bilan aniqlash usullari va ularning sifat reaksiyalari orqali qaysi sinf birikmasi ekanligini aniqlash usullari ko‘rsatilgan.

Shuningdek, navbatdagi bo‘limlarda muhim bo‘lgan har bir sinf organik birikmalarni laboratoriya sharoitida sintez qilish usullari tushunarli va sodda qilib yozilgan. Ularni sintez qilishdagi asosiy va qo‘sishimcha reaksiyalari va ularning mexanizmlari keltirilgan. Bu talabalarning shu reaksiyalarni chuqurroq o‘zlashtirishlariga yordam berishiga ishonamiz.

Qo‘llanmadan organik kimyo kursi o‘qitiladigan boshqa institutlar talabalari va o‘rta maktab o‘quvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Mazkur amaliy mashg‘ulotlar qo‘llanmasi ba’zi kamchiliklardan holi emas. Shuning uchun mualliflar qo‘llanma haqida fikr va mulohazalaringizni samimiyat bilan qabul qiladilar.

Mualliflar.

1-LABORATORIYA ISHI

ORGANIK KIMYO LABORATORIYASIDA ISHLASH QOIDALARI

(texnika xavfsizligi, asbob uskunalar va moddalar bilan ishlash)

Ishdan maqsad: kimyoviy moddalar bilan o'tkaziladigan tajriba ishlashini ishonchli va xavfsiz tartibda o'tkazish maqsadida talabalarga laboratoriya ishlashning texnika xavfsizligi qoidalarini amalda tanishtirish.

Umumiy qoidalar

Organik sintez laboratoriylarida ishlaganda amaldagi xavfsizlik qoidalariga rioya qilish kerak. Bu qoidalarga rioya qilish faqatgina shaxsiy xavfsizlik uchun emas, balki yon-atrofda ishlayotgan boshqa kishilarning xavfsizligi uchun ham zarurdir.

Asosan ma'lum tajribani bajarishdagi xavfsizlikni ta'minlovchi extiyotkorlik choralar qilinayotgan ish turiga ham bog'liqdir. Laboratoriya ishlayotgan barcha xodim va talabalar uchun bajarilishi shart bo'lgan umumiy qoidalar mavjuddir.

1. Laboratoriya yolg'iz ishlash mumkin emas, chunki baxtsiz hodisalar ro'y berganda jabrlanuvchiga avariya holatlarida hech kim yordamga kelmaydi.
2. Doimo ishlagan vaqtida tozalikka, tartibga, tinchlik saqlanishiga va qoidalarga rioya qilish kerak, aks holda ishga sust qarashlik oqibatida turli ko'ngilsiz voqealar ro'y berishi mumkin.
3. Laboratoriya ishlovchilarning barchasi quyidagi yong'inga qarshi himoya vositalarining turar joyini bilishlari kerak: o't o'chirish vositasi, qumli idish, voylokli yoki asbestodeyal, birinchi yordam ko'rsatish uchun medikamentli quти (taninning spirtli eritmasi, kaliy permanganat, borat kislotasi, natriy gidrokarbonat, yod eritmalar shuningdek, paxta, bint, plastir, kuyganda suriladigan maz).
4. Laboratoriya ovqatlanish, chekish, kimyoviy idishlardan suv ichish mutlaqo mumkin emas.
5. Ish boshlamasidan avval sintez uchun kerakli barcha moddalarning xossalari bilish kerak. Ish boshlashdan avval rahbar bilan qilinadigan ishning bajarilish joyi va asbob yig'ish tartibini maslahatlashish kerak. O'ta xavfli va murakkab bo'lgan sintez bajarilish haqida rahbar xodim ogohlantirilgan bo'lishi kerak.

6. Tajribani iflos idishlarda bajarish mumkin emas. Ishni tugatgandan so‘ng darhol idishlarni tozalab yuvish kerak.
7. Ishni juda ehtiyyotkorlik bilan va tartibli ravishda bajarib, moddalarini teriga va uyziga sachratmaslik kerak, chunki, ularning ko‘pchiligi (galoid birikmalar, fenollar, nitrobirikmalar, to‘yinmagan birikmalar va h.k.) teriga, ko‘rish va nafas olish organlariga kuchli ta’sir qiladi.
8. Biron bir moddaning mazasini tatib ko‘rish mutlaqo mumkin emas. Moddalar hidini bilish uchun idish qopqog‘ini ochib, o‘zidan 30-50 sm uzoqlikka olib borib, qo‘l bilan havoni idishdan o‘zi tomon yo‘naltirish kerak.
9. Ishlab turgan asboblarni nazoratsiz qoldirish mutlaqo mumkin emas.
10. Barcha idishlardagi moddalarning nomlari bo‘lishi kerak.
11. Pipetka yoki boshqa usul orqali moddalarni idishdan og‘izda tor-tib ta’mini bilish mumkin emas.
12. Suyuqliklarni qizdirayotganda idishning og‘zini o‘zi va boshqalar tomoniga teskari bo‘lgan tomonga qaratish kerak va qaynayotganda idish og‘ziga qarash mumkin emas.
13. Ish tugagandan so‘ng barcha elektr asboblarni, gaz va suvlarning kranini berkitib, ish joyini tartibga keltirish kerak.
14. Tutowchi va ko‘zni yoshlantiruvchi moddalar bilan barcha ishlarni mo‘rili shkafda bajarish kerak.
15. Moddalar solingen barcha idishlarni bir qo‘l bilan og‘zi tomonidan ikkinchi qo‘l bilan ostidan ushslash kerak.

Kislota va ishqorlar bilan ishlash qoidalari

Mineral kislotalar (xlorid, nitrat, sulfat va ftorid kislotalar) va kuchli organik kislotalar (poli- va monogaloidkarbon kislotalar) teriga va ko‘zga sachrasa, kimyoviy kuyishga olib kelib, oqibatda qiyin tuzaladigan yara hosil qilishi va ko‘rish qobiliyatini yo‘qotishi mumkin.

Kislota va ishqorlar bilan ishlaganda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

1. Kislota va ishqorlar bilan barcha ishlarni himoya ko‘zoynaklarini taqib, rezina qo‘lqop kiyib bajarish kerak.

2. Katta idishlardan kichik idishlarga kislota va ishqorlarni quyganda himoya ko‘zoynaklarni taqib, rezina qo‘lqop kiyib va fartuk taqib ishni bajarish kerak.
3. Kislota va ishqorlarni og‘izda sifon yoki pipetka bilan tortish mutlaqo mumkin emas.
4. Sulfat kislotani issiqbardosh idishda himoya ko‘zoynagini va fartukni taqib, suvga kislotani oz-ozdan quyib suyultirish kerak. Aks holda kislotali suv sachrashi mumkin.
5. Kaliy va natriy gidroksidlarini faqat pinset orqali olib idishga solib, himoya ko‘zoynaklarini taqqan holda oz-ozdan suv solib suyultirish kerak.
6. Eksikatorlarda moddalarni quritish maqsadida sulfat kislotasini ishlatib bo‘lmaydi, chunki portlash sodir bo‘lib, atrofdagilarga kislota sachrashi mumkin.
7. Ftorid kislotasi bilan tajribalarni bajarish juda ehtiyyotkorlikni talab qiladi. Ishni mo‘rili shkafda himoya ko‘zoynaklarini taqib, rezina qo‘lqopni kiyib bajarish kerak.
8. Kislota va ishqorlardan qolgan qoldiqlarni rakovinalarga to‘kish mumkin emas, ular maxsus qoldiqlar solinadigan idishlarga solinadi.
9. To‘kilgan kislota va ishqorlarni himoya ko‘zoynaklarini taqib, avvaliga neytrallash, keyin esa oddiy tozalash ishlarini olib borish kerak.

Oson yonuvchan, portlovchi va toksik moddalar bilan ishlash qoidalari

Brom bilan ishlash

1. Bromni faqat devorlari qalin og‘zi shlifli tiqin bilan berkiladigan idishda saqlash kerak. Brom solingan idishni metalldan yasalgan va qum solingan idish ichiga yoki farfor idishga solib qo‘yish kerak.
2. Brom ko‘rish va nafas olish organlariga ta’sir qiladi va teriga tegsa qiyin tuzaladigan yaralarni hosil qiladi. Brom bilan faqat mo‘rili shkafda himoya ko‘zoynagini va rezina qo‘lqopni taqib ishlash kerak.
3. Brom solingan idishlarni qumli idishlarda tashish kerak.
4. Bromni tomizgich voronkadan tomizishdan avval kranning zich yopilishini tekshirish kerak va kranni tozalab, fosfor kislotasini moy o‘rnida surish kerak. Kranning germetikligini efir solib tekshirish kerak. Kranning bir tomoniga tasodifan voronka korpusidan chiqib ket-

masligi uchun rezina belbog‘ qilish kerak. Tomizgich voronkaga bir-daniga 10 ml brom quyish mumkin.

Natriy metali bilan ishlash

Natriy va kaliy metali bilan ishlaganda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

1. Ularning suv va galoid birikmalar bilan ta’sirlashuviga yo‘l qo‘ymaslik kerak.
2. Natriy metalini qalin devorli yoki metall devorli idishda suvsizlan-tirilgan kerosinda, yuqori temperaturada qaynaydigan uglevodorodda yoki transformator moyida saqlash kerak. Natriy solingan idish qum solingan metal idishning yoki qutining ichida saqlanishi kerak. Idishning ustini esa tiqin yoki farfor chashka bilan berkitib qo‘yish kerak.
3. Natriy metalini faqat pinset, skalpel yoki pichoq bilan olib darhol kerosin yoki suvsiz uglevodorod solingan idishga solinadi.
4. Natriy metalini metall qisqich bilan ushlab turgan holda filtr qog‘ozda kesiladi va kerosin, toluol yoki ksilol solingan idishga solinadi. Natriy metalining ustidagi oksid qavatni pichoq bilan qirib tash-lab, kerosinni filtr qog‘oz bilan shimdirib, shu zahotiyoyq toza natriy reaksiyon kolbagaga solinadi. Natriydan qolgan chiqindilarni alohida ke-rosin solingan idishga solib qo‘yiladi. Natriy bilan barcha ishlar himoya ko‘zoynagini taqib, suvdan narida bajariladi.
5. Natriy qoldiqlarini kerosin solingan idishga solish kerak. Natriy qirqilgan filtr qog‘ozni va natriy bilan reaksiya olib borilgan idishlarga spirt solish kerak.
6. Natriy qoldiqlarini chiqindi solinadigan idishga yoki rakovinaga to‘kish mutlaqo mumkin emas.
7. Natriy bilan vertikal o‘rnatilgan suvli sovitgichli asboblarda ishlash mumkin emas. Suvli sovitgichni forshtosga qiya qilib o‘rnatib, suvning reaksiyon kolbagaga tushmasligini nazorat qilib turish kerak.
8. Natriy solingan kolbani suvli hammomda isitish mumkin emas, faqatgina qumli idish tagligida yoki usti berkitilgan isitish plitalarida qizdirish mumkin.

9. Natriy metalini mono- va poligaloid birikmalar, karbonil birikmalar, kislotalar, spirtlar, nitrobirikmalarni quritish sifatida ishlatish mumkin emas.
10. Natriy bo'laklarini bo'sh idishlarda qoldirish mumkin emas. Chunki, natriy bo'laklari oksid qavat hosil qilganda CaCl_2 ga o'xshab oqarib qoladi va bilmasdan shu idishga suv solinsa, portlash sodir bo'ladi.
11. Natriy qiytimlarini oz-ozdan idishga solib, ko'p miqdordagi texnik spirtlar bilan eritiladi.
12. Natriy yoki kaliy metali yonib ketsa, qum bilan o'chirish kerak.

Toksik moddalar bilan ishlash

1. Quyi kislotalarning xlorangidridlari, dimetilsulfat bilan juda ehtiyyotkorlik bilan ishlash kerak. Bu moddalar bilan rezina qo'lqop kiyib, mo'rili shkafda ishlash kerak. Ishlashdan oldin rahbar bilan maslahatlashish kerak. (Ish mo'rili shkafda bajariladi!)
2. Kaliy yoki natriy sianid bilan ishlashdan avval rahbardan ishlash qoidalari o'rganib, rahbar bilan birga mo'rili shkafda ishni bajarish kerak.
3. Fenol, galogenonitrobirikmalar, to'yinmagan karbonil birikmalar, to'yinmagan kislotalar, alifatik galogenkislotalari, gidrazin va boshqa moddalar bilan himoya ko'zognagini taqib ishlash kerak, chunki ular teriga, ko'zga va nafas yo'llariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Barcha ishlar mo'rili shkafda olib boriladi.

Oson yonuvchan va portlovchi moddalar bilan ishlash qoidalari

Laboratoriya sintezida ishlatiladigan ko'p reaktivlar, oraliq reaksiya mahsulotlari, bug'lar, gazlar, qattiq moddalar va reaksiyalarning suyuq mahsulotlari yonuvchan va oson alangananuvchan moddalardir. Ba'zi moddalar portlovchidir, ba'zilari esa havo bilan portlovchi aralashmalar hosil qiladi.

1. Oson alangananadigan moddalar bilan, masalan, efir, petroleyni efiri, atseton, uglerod sulfid, benzol kabilari bilan alanga va qizib turgan elektr isitish asboblari yonida ishlab bo'lmaydi. Oson alangananuvchan moddalar bilan ochiq elektr isitish asboblarida va ochiq alangada ish-

lab bo‘lmaydi. Oson alangalanadigan moddalar suv hammomida qaytarma sovitgich o‘rnatilgan kolbalarda qizdiriladi.

2. Oson alangalanadigan moddalar (efir, petroleyn efir, atseton, uglerod sulfid, benzol, spirt) usti yopiq isitish asboblarida suvli hammomda suvli sovitgich o‘rnatilgan kolbalarda haydaladi. Shuningdek, rotor bug‘latgichida ham haydash mumkin. Oson alangalanadigan moddalarini ochiq turdag'i elektr isitish asboblari va ochiq alangada bug‘latish mumkin emas.

3. Oson alangalanadigan moddalar bo‘lgan idishlarni ish tugagach, yon atrofda yonayotgan gaz gorelkasini o‘chirib, keyin qismlarga bo‘lib, qoldiqlar maxsus qoldiq solinadigan idishlarga solinadi va yuviladi.

4. Oson alangalanadigan moddalar qoldiqlarini chiqindi solinadigan idishlarga yoki rakovinalarga to‘kib bo‘lmaydi, chunki, boshqalar bilmasdan sigareta qoldiqlarini yoki chala o‘chirilgan gugurt donasini shu yerlarga tashlasalar, yong‘in oqibatlariga olib kelishi mumkin.

5. Oson alangalanadigan moddalarini haydaganda quruq holatgacha haydash kerak emas, chunki, ko‘pgina oson alangalanadigan moddalar (dietil efir, dioksan) portlovchi peroksidlar hosil qiladilar.

6. Efirni yoki boshqa oson alangalanadigan moddalarini natriy metali ustida haydaganda avvaldan qizdirib olingen qumli hammomdan astalik bilan foydalaniлади.

7. Organik erituvchilarni ishlatishdan oldin (dioksan, efir, tetragidrofuran va h.k.) ularning tarkibida peroksidlar bor yoki yo‘q ekanligini tekshirish kerak.

8. Vodorod bilan ishlaganda uning havo kislorodi bilan portlovchi aralashma hosil qilishini bilgan holda quyidagilarga rioya qilish kerak: a) vodorod bilan ishlanayotgan barcha asboblarning germetikligini tekshirish kerak; b) asbobdan vodorod kanallari orqali chiqayotgan havo oqimi tugashini va toza vodorod chiqishini tekshirish kerak, probirkaga yig‘ib olingen vodorod agar toza bo‘lsa, yoqqanda ovoz chiqarmasdan yonishi kerak; v) vodorod bilan to‘ldirilgan asbobni faqat vodorod tozaligi tekshirilgach ishga tushirilishi kerak; g) tajriba tugagach, qizdirish to‘xtatiladi va vodorod tokida asbob sovitiladi.

Past bosimlarda ishlash qoidalari

1. Vakuum ostida barcha shisha idishlar bilan himoya ko'zognagini taqqan holda ishlash kerak. Bunga vakuum ostida haydash, vakuum eksikatorda quritish, Bunzen kolba va Byuxner voronkasidan foydalanigan (Bunzen kolbasini qalinroq sochiq bilan o'rab qo'yish kerak) holda vakuum ostida filtrlash ishlari kiradi.
2. Vakuumda ishlaganda moddani haydab bo'lgach, himoya ko'zognagini asbobning harorati atmosfera temperaturasi bilan mos bo'lgach (5-8 min.) yechiladi.

Kuyganda va ko'ngilsiz hodisalarda birinchi yordamni ko'rsatish

1. Temperatura ta'sirida kuyganda taninning spirtli eritmasi, etil spirti yoki kaliy permangantring eritmasi bilan kuygan joyni ko'p martalab ho'llanadi.
2. Kislotalar bilan teri yoki boshqa yer kuysa, darhol o'sha joy suv bilan keyin 3%-li natriy gidrokarbonat bilan yuviladi.
3. Ishqorlar bilan kuygan joyni ko'p miqdordagi suv va 3%-li sirka kislota bilan yuvilgach, yana suv bilan bir necha bor yuviladi.
4. Agar ko'zga kislota yoki ishqorlar sachrasa darhol ko'zga suvni kuchli sepib 4-7 minut davomida yuviladi. Keyin esa ko'zga agar kislota sachragan bo'lsa, natriy gidrokarbonatning suvli eritmasi bilan, agar ishqorlar sachragan bo'lsa, borat kislota eritmasi bilan yuviladi.
5. Fenol bilan kuygan yerni spirt bilan artiladi.
6. Brom bilan kuyganda tezda spirt va ishqorning kuchsiz eritmasi bilan artiladi, keyin yana spirt bilan artilib, vazelin surtiladi. Agar nafas yo'llari brom bilan zararlansa, paxtaga spirtni shimdirlib, paxtani burunga tekkazib kuchli nafas olish kerak, keyin esa sut ichib, toza havoga chiqish kerak.
7. Organik modda qo'lga tekkanda shu modda erituvchisi bilan qo'l artiladi va vazelin surtiladi.
8. Jabrlangan talabaga birinchi yordam berilgach, tibbiyot xodimi qabuliga olib borish kerak.

Laboratoriadagi yong‘inni va yonayotgan kiyimni o‘chirish

1. Yong‘in paydo bo‘lganda darhol gaz kranlarini berkitish va elektr jihozlarini o‘chirish kerak. Yonayotgan narsalarni darholda yong‘in maydonidan uzoqroq joyga surib tashlab, alangani uglekislotali yong‘in o‘chirish moslamasi bilan, qum yoki yong‘inga qarshi ishlataladigan qalin mato bilan o‘chirish kerak. Alangani suv sepib o‘chirib bo‘lmaydi, chunki alanga kuchayib, yong‘in maydoni kengayishi mumkin.
2. Biron kimsaning kiyimi yonayotgan bo‘lsa, darhol jabrlanuvchining ustiga qalin mato tashlab, alanga o‘chiriladi. Yonayotgan kimsa hech qachon xonada yugurmasligi kerak, aks holda alanga kuchayishi va ba’zi tez yonuvchan moddalarga o‘tishi mumkin. Yonayotgan odam darhol o‘z ustidan suv kuyishi kerak, yoki yerga dumalashi mumkin.

KIMYO LABORATORIYASIDA TAJRIBANI BAJARISH QOIDALARI

1. Labaratoriyada ish boshlashdan oldin xalat kiyish, suv, elektr, gaz borligi, mo‘rili shkaf ishlash – ishlamasligini ko‘zdan kechirish, so‘ngra xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioxqa qilishi kerak.
2. Har bir talaba, iloji boricha, o‘zi uchun ajratilgan joyda ishlashi kerak.
3. O‘tkaziladigan tajribaning tavsifi, unda ishlatiladigan asbob va reaktivlar talabaning ish daftarida to‘liq yozilgan bo‘lishi lozim. Tajriba materialini talaba to‘liq o‘zlashtirganiga o‘qituvchi iqror bo‘lganidan keyingina ishni bajarishga ruxsat etiladi.
4. Tajriba o‘tkazilayotganida ozodalikka va saranjom – sarishtalikka rioxqa qilish kerak.
5. Ish vaqtida gaz yoki vodoprovod jo‘mraklari va shunga o‘xshashlar, elektr asboblari, tarozilar ishlamay qolsa, tezda laborantga murojaat qilish kerak.
6. Tajriba tugagach, gaz gorelkasi va suv jo‘mraklarini berkitish, elektr asboblarini o‘chirish, shuningdek tajriba natijalarini laboratoriya daftariga yozish kerak.

7. Talaba ishlatib bo‘lgan reaktivlarni joyiga qo‘yishi, o‘zi sintez qilgan moddani laborantga topshirishi lozim. Ishlatilgan idishlarni va asboblarni tozalab, shkaflarga qo‘yib, ish joyini toza qoldirishi kerak.
8. Laboratoriya darsini qoldirgan talabanining o‘qituvchisiz yoki katta laborantsiz tajriba o‘tkazishiga ruxsat etilmaydi.

Laboratoriyada rioya qilish kerak bo‘lgan xavfsizlik texnikasi qoidalari.

Laboratoriyada ko‘ngilsiz hodisalar sodir bo‘lmasligi uchun quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

1. Laboratoriyada o‘t o‘chirgich, jun material va qutida qum bo‘lishi kerak.
2. Natriy va kaliy metallarini kerosinda, benzolda yoki toluolda saqlash lozim. Ular qisqich bilan olinib, filtr qog‘oz ustida – skalpel’ yordamida mayda bo‘laklarga bo‘linadi. Filtr qog‘oz ustida qolgan natriy yoki kaliy metallarining mayda bo‘laklarini tashlab yuborish man etiladi. Ularni maxsus idishlarga solish yoki spirtda eritib yuborish kerak.
3. Oson uchuvchan va tez yonuvchan organik erituvchilar (benzol, toluol, benzin etil spirti va h.k.) saqlanadigan idish og‘zini ochiq holda alanga yoki elektr plitkalar oldida qoldirish man etiladi. Bunday eritmalarни laboratoriyada bir litrdan ko‘p saqlash mumkin emas.
4. Tajriba o‘tkazilayotganda asbobning ulangan joylarini kuzatib turish kerak.
5. Oson uchuvchan va tez yonuvchan organik moddalarni ochiq alanga yordamida qizdirish man etiladi.
6. Tajriba o‘tkazilayotgan vaqtida ish joyini tashlab ketish qat’ian man etiladi.
7. Kislota eritmasi tayyorlanayotganda suvni kislotaga emas, balki kislotani suvgaga oz-oz miqdorda solib tayyorlash lozim.
8. Organik moddalarni hidlash, mazasini tatib ko‘rish va ularni ochiq qoldirish mumkin emas.
9. Tajriba tugatilgach gaz, suv va elektr asboblarini o‘chirish va ish joyini navbatchi laborantga topshirish lozim.

Ko‘ngilsiz hodisalar ro‘y berganda birinchi yordam ko‘rsatish

1. Laboratoriya birinchi yordam qutisi bo‘lishi shart, uning qayerda joylashganligi va undan qanday foydalanishni talabalar bilishi lozim.
2. Issiqlik ta’sirida kuygan joyga tezda spirit yoki kaliy permanganat eritmasi bilan ho‘llangan paxta qo‘yiladi.
3. Ko‘zga yoki badanning biror joyiga kislota sachrasa, o‘sha yer dastlab yaxshilab suv bilan, so‘ngra sodaning 3 % li eritmasi bilan yuviladi.
4. Ishqor sachraganda esa dastlab suv bilan, so‘ngra sirkas kislotaning 1% li eritmasi bilan yuviladi.
5. Shisha kesgan joy dastlab shisha siniqlaridan tozalanadi, so‘ngra yodning 3 % li eritmasi surtilib, sterillangan bint bilan bog‘lanadi.
6. Gazlar ta’sirida zaxarlanganda tezda novshadil spirti hidlatilib, ochiq havoga olib chiqiladi.

ISH JURNALI TUTISH VA HISOBOT YOZISH

Laboratoriya amaliy mashg‘ulotlari uchun ish jurnali tutish
va hisobot yozish qoidasi

Talaba organik kimyo laboratoriysi darsi uchun alohida ish rejasи tuzadi. Bunda dastlab ish daftariga ishning tartib raqami, sintezning nomi, foydalanilgan adabiyotning muallifi va nomi, ish boshlangan vaqt, reaksiyaning asosiy va qo‘shimcha mahsulotlar hosil bo‘lish tenglamalari hamda ma’lumotnomalardan foydalanib, reaksiya uchun olingan dastlabki moddalarning fizikaviy konstantalari (qaynash yoki suyuqlanish temperaturasi, zichligi, sindirish ko‘rsatkichi, molekulyar og‘irligi) va ularning nazariy hamda metodika bo‘yicha miqdori, asli reaksiya tenglamasi asosida hisoblashlar yoziladi.

Ish rejasi foydalanilgan qo‘llanmadagi ish metodikasining aynan o‘zi bo‘lmasligi kerak. Bunda biror moddaning sintezini bajarishda ishlatiladigan reaktivlarning miqdori aniq ko‘rsatilishi va ularning tozaligi hamda konsentratsiyalari tekshirilgan bo‘lishi kerak. Ish rejasi yakunida sintez qilingan moddaning konstantalari (suyuqlanish va qaynash temperaturalari) ma’lumotnomadan yoki foydalanilgan adabiyotdan topib yoziladi va sintez olib borish asbobining chizmasi chiziladi.

Sintezning tavsifi va ish planini o‘qituvchi ko‘rib tasdiqlagani dan so‘ng talabaga sintezni (tajribani) bajarishga ruxsat beradi.

Laboratoriya ishi № _____

№ _____ tajriba. _____ sintezi

(sintez qilingan moddaning nomi)

Foydalaniman qilingan adabiyot _____

(qo‘llanmaning nomi, avtori, nashr etilgan yili va beti)

Ish boshlangan vaqtি _____

(kun va soat)

Reaksiyaning asosiy tenglamasi:

Reaksiya mexanizmi:

Qo‘shimcha yo‘nalishda ketadigan reaksiya mahsulotlari:

1-jadval

Sintez uchun olingan moddaning miqdorini hisoblash

Reaksiya uchun olingan dastlabki moddalar			Moddalarning miqdori				
Moddaning nomi va formulasi	Moddaning molekulyar massasi	Konstantalari qaynash va suyuqlanish temperaturasi, °C	Nazariya bo‘yicha		Metodika bo‘yicha		Or-tiqcha
			Mol hisobida	Gramm yoki ml hisobida	Gramm yoki ml hisobida	Mol hisobida	

Tajribaning bajarilish tartibi.

Talaba biror sitezni bajarish davomida ish daftariga shu sintez yuzasidan hisobot yozadi. Hisobotda bu ishning metodikasi, ya’ni reaksiyani olib borish sharoitlari, sintez davomida eksperimentator tomonidan kuzatilgan reaksiyaning o‘ziga xos belgilari (modda ranginig o‘zgarishi, issiqlik va gaz ajralib chiqishi), ayrim ishlarni, masalan, reaksiyon aralashmagaga ikkinchi komponentni qo‘shish yoki qaynatish kabi jarayonlarning muddati hamda reaksiya uchun olingan reaktiv va erituvchilarining miqdori aniq va to‘liq yozib boriladi. Ayniqsa, ish

hisobotida sintez qilib olingan moddaning unumi va tozalash (haydash, qayta kristallantirish va xromatografiya) usullari to‘la yoritilgan bo‘lishi kerak.

Hisobot yakunida sintez qilingan moddaning fizikaviy konstantalari quyidagi jadval tarzida beriladi.

2-jadval

Olingan moddaning nomi va formulasi	Moddaning konstantalari		Moddaning miqdori		
	Tajribada topilgan	Adabiyot bo‘yicha	Gramm hisobida	% hisobida	
				Nazariy jihatdan	Foydalanimigan qo‘llanma jihatdan
sintez tugallandi					

(kun va soat)

modda topshirildi _____

O‘qituvchi imzosi

Nazorat savollari.

1. Nima uchun organik sintez laboratoriylarida ishlaganda amaldagi xavfsizlik qoidalariiga rioya qilish kerak?
2. Kislota va ishqorlar bilan ishlash qoidalari, ushbu moddalar bilan ishlaganda zaruriy extiyot choralarini va birinchi yordam ko‘rsatish.
3. Oson yonuvchan, portlovchi va toksik moddalar bilan ishlash qoidalari. Brom, natriy metali bilan ishlashdagi xavfsizlik choralarini.
4. Toksik moddalar bilan ishlash
5. Oson yonuvchan va portlovchi moddalar bilan ishlash qoidalari
6. Past va yuqori bosimlarda ishlash qoidalari
7. Kuyganda va ko‘ngilsiz hodisalarda birinchi yordamni ko‘rsatish
8. Laboratoriyaning yong‘inni va yonayotgan kiyimni o‘chirish
9. Kimyo laboratoriyasida tajribani bajarish qoidalari
10. Laboratoriya da rioya qilish kerak bo‘lgan xavfsizlik texnikasi qoidalari.
11. Ko‘ngilsiz hodisalar ro‘y berganda birinchi yordam ko‘rsatish
12. Laboratoriya amaliy mashg‘ulotlari uchun ish jurnali tutish va hisobot yozish qoidasini.

2-LABORATORIYA ISHI

ORGANIK MODDALARNI TOZALASH USULLARI


Ishdan maqsad: suyuq va qattiq organik moddalarni turli usullarda: kristallah, sublimatsiya, oddiy haydash, suv bug‘ida haydash, fraksiyalarga bo‘lib haydash, vakuumda haydash, xromatografiya kabi tozalash ishlarini amaldagi tajriba ishlarini bajarish bilan mukammal o‘zlashtirish

Organik sintezning eng muhim vazifalaridan biri toza holatdagi organik moddalarni hosil qilish va ajratib olishdir. Reaksiya natijasida sintez qilib olingen asosiy moddalar reaksiyon aralashmada qo‘sishimcha moddalar bilan aralashgan bo‘ladi va u «xom» mahsulotlar deyiladi. Bu «xom» mahsulotlarni tozalashda tabiiy birikmalarning murakkab aralashmasidan toza moddalar ajratib olish lozim bo‘ladi, bunda ularning eruvchanligiga qarab turli erituvchilarda eritish, kristallga tushirish, filtrlash, ularni qaynash temperaturasiga qarab haydash va turli xromatografiya metodlaridan foydalaniladi.

QATTIQ ORGANIK MODDALARNI TOZALASH. KRISTALLANTIRISH

Kristallah usuli bilan organik moddalarni tozalash aralashmadagi moddalarning eruvchanligi har xilligiga asoslangan. Bunda erituvchi ayni moddani faqat aralashma qizdirilgandagina eritib, undagi boshqa moddalarga ta’sir etmasligi kerak, binobarin eritish va kristallah jarayonida kimyoviy reaksiya sodir bo‘lmasligi kerak. Erigan moddani bekorchi qo‘sishchalardan tozalash maqsadida qaynoq eritma burma qog‘oz filtrli voronka orqali filtranadi. Filtrat sovitilganda toza modda cho‘kmaga tushadi. U erituvchidan nutch filtri yordamida ajratiladi, so‘ng sovuq erituvchi bilan yuvib quritiladi. Bekorchi aralashmalar tasirida ba’zi organik moddalar eritmasi turli rangga bo‘yalishi va buning natijasida asosiy modda kristallari och rangli bo‘lib qolishi mumkin. Bunday hollarda kolbadagi rangli eritmaga adsorbentlar (aktivlangan ko‘mir) qo‘shib 10-15 minut qaynatiladi. Kolbadagi eritmani Bunzen kolbasi va Byuxner voronkasida (1-rasm) suv nasosi yordamida qaynoq holda filtranadi. Filtratni toza kolbaga solib, tiniq eritma hosil bo‘lguncha qaynatiladi. So‘ngra kolbani hona haroratida sovitiladi. Hosil bo‘lgan kristallarni Bunzen kolbasi va

Byuxner voronkasida suv nasosi yordamida filtrlanadi va ochiq havoda quritiladi. Qurigan kristallarni shisha kapillyarga joylab, suyuqlanish haroratini metal qolipida aniqlanadi.



1-rasm. Kristallarni filtrlash asbobi:
I. 1-Bunzen kolbasi;
2-Byuxner voronkasi;
II. Vakuum hosil qiluvchi suvli nasos.

Atsetanilid yoki sulfanil kislotasini qayta kristallahsh

Ishning maqsadi: qattiq modda uchun erituvchi tanlashni va qayta kristallanishini hamda toza moddani tahlil qilishni o‘rganish.

100 – 200 ml hajmli stakanga 2 - 3 g atsetanilid yoki sulfanil kislotasidan 50 – 70 ml issiq suv, oz miqdorda, 0,5 – 1 g aktivlangan ko‘mir solinadi. Hosil bo‘lgan aralashmani 15-20 minut davomida plitkada qaynatiladi. Qaynoq eritmani issiq holda burma filtr yordamida filtrlanadi va so‘ngra filtratni sovitiladi, natijada oppoq atsetanilid yoki sulfanil kislotasi kristallari stakan ostiga tushadi. Hosil bo‘lgan kristallarni Byuxner voronkasi (1-rasm.) yordamida ajratib olamiz. Kristallarni filtr orasida quritib torozida tortamiz va boshlang‘ich miqdorga nisbatan, foiz miqdorni aniqlaymiz. Olingan kristallarimiz toza ekanligini suyuqlanish temperaturasini orqali aniqlaymiz. Suyuqlanish temperaturasi : asetanilid – 114,3°C, sulfanil kislotasi – 280°C.

Benzoy kislotasini qayta kristallahsh

Ishning maqsadi: qattiq modda uchun erituvchi tanlashni va qayta kristallanishini hamda toza moddani tahlil qilishni o‘rganish.

100 ml sig‘imli stakan yoki kolbaga 1 g benzoy kislota , 40 ml suv va 0,05–0,1 g kukun holdagi aktivlangan ko‘mir solib suv hammomida qizdiriladi. Aralashma 10-15 minut davomida qaynagandan so‘ng eritma tezda burma filtr orqali filtrlanadi. Filtrat muz solingan suvda sovitilib, idish devorlari shisha tayoqcha bilan ishqalanganda benzoy kislotaning kristallari ajrala boshlaydi. Hosil bo‘lgan kristallarni Byuxner voronkasi (1-rasm) yordamida ajratib olinadi va filtr qog‘oz orasiga olib siqiladi, so‘ngra idishga solinib quritish shkafida quritiladi. Kristallar qurigach uning suyuqlanish temperaturasi aniqlanadi. Toza benzoy kislotasining suyuqlanish temperaturasi 121 – 122⁰C . Agar benzoy kislotsasi juda toza bo‘lmasa, suvda yana bir matorataba qayta kristallanadi.

Sublimatsiya (vozgonka) usulida qattiq moddalarni tozalash

Ishning maqsadi: qaynash haroratiga yetmasdan avval parchalanib ketuvch qattiq moddani chinni kosachada qizdirilganida suyuqlanmasdan birdaniga bug‘ holatiga o‘tib qayta kristallanishini hamda toza moddani tahlil qilishni o‘rganish.

Qattiq moddalarni sublimatlantirish ikki bosqichdan iboratdir: - qattiq moddalarning bug‘lanishi; - hosil bo‘lgan bug‘larning kondensatlanib yana qattiq toza holdagi moddaga aylanishi.


Organik moddalar tarkibidagi qo‘srimchalari bug‘lanmasdan asosiy modda bug‘lansa, bu usulda tozalash qulay bo‘ladi. Sublimatlantirish usuli xinonlar, ko‘p halqali uglevodorodlarni va ba’zi birikmalarni tozalashda qo‘llaniladi. Bu usulda moddalarni ularning bug‘lanish temperaturasidan ozgina pastroq haroratda (moddalarning bug‘lanish temperaturasi deb, qattiq moddalarning bug‘ bosimlari atmosfera bosimiga tenglashish momentiga aytildi) qizdiriladi. Bu esa toza modda olish imkonini beradi.

Sublimatlantirish farfor kosachada bajariladi, uning ustiga esa filtr qog‘ozni teshikchalar qilib, kosacha ustiga qo‘yib, uning ustiga shu filtr qog‘izi kattaligida voronka o‘rnataladi (2-rasmga qarang). Voronka diametri kosacha diametridan katta bo‘lmasligi kerak, aksincha undan 0,5 sm kichik bo‘lsa, yaxshi natijaga erishiladi. Filtr qog‘izi

ham kosachaning ichiga 0,5 sm gacha chuqurlikka tushib turishi kerak. Sublimatlantirilayotgan modda esa maydalangan bo‘lishi kerak.

Sublimatlantirish vakuumda ham olib boriladi (3-rasmga qarang). Asbobni yig‘ishdan oldin idishlarni toza va quruq holatga keltirish kerak.

Vakuumga ulagach asta qizdiriladi. Ishni tugatgach esa asbobni ajratishdan oldin shliflangan yeri ozgina qizdiriladi. Qizdirilganda bir-biridan ajratish oson bo‘ladi. Qayta kristallantirishdan sublimatlantirish usulida qattiq moddalarni tozalashning afzalligi shundaki, bu usulda birdaniga toza modda olish mumkin va sublimatlantirishni ozgina modda bilan bajarsa ham bo‘ladi.



2-rasm.

Atmosfera bosimida
Sublimatlantirish asbobi.


3-rasm. Vakuumda sublimatlantirish asbobi; 1-shlifli stakan; 2- suv sovit-gichli barmoqsimon qalpoq; 3-suv kirishi uchun shisha nay; 4- suv chiqishi uchun nay; 5-vakuumga ulanadigan shisha nay jo‘mragi; 6- sublimatlantirilayotgan modda

ARALASHMALARINI HAYDASH USULI BILAN AJRATISH

Ishning maqsadi: Organik moddalarni tozalashda yoki aralash-malardan biror komponentni ajratib olishda haydash usulidan keng foydalanilshni hamda toza moddani tahlil qilishni o‘rganish. Haydash ikki turga: oddiy va fraksiyalarga bo‘lib haydashga bo‘linadi. Organik moddalarni haydash sharoitiga ko‘ra *atmosfera bosimida*, *vakuumda* va *suv bug‘i* yordamida haydash mumkin.

Atmosfera bosimida haydash


Agar biror suyuqlik o‘zining qaynash temperaturasida parchalanmasa, atmosfera bosimida oddiy haydash usulidan foydalaniladi. Oddiy sharoitda haydash moslamasi. 4 - rasmda ko‘rsatilgan.



4-rasm. Atmosfera bosimida oddiy haydash asbobi.
1 – termometr; 2 – termometr g‘ilofi; 3-Vyurs kolbasi; 4 - Libix sovitgichi. 4 - yig‘gich kolba; 5-mahsulot

Suv bug‘i bilan haydash

Organik moddalarni tozalash va murakkab aralashmalarini ayrim komponentlarga ajratishda keng qo'llaniladigan usullardan biri. Suvda qiyin eriydigan yoki aralashmaydigan, suv bilan reaksiyaga kirishmaydigan hamda qaynash temperaturasigacha qizdirilganda parchalana boshlaydigan moddalar suv bug'i bilan haydaladi. (5-rasm). Suv bug'i bilan haydashda I kolbadagi suv qaynatiladi, chiqayotgan suv bug'i aralashma solingan yumaloq tubli II haydash kolbasiga naycha orqali yuboriladi.



5-rasm. Suv bug'i bilan haydash asbobi.


a - shlifli idishlarda; b - rezina tiqinli idishlarda haydash: 1 - bug' hosil qilgich; 2 - ximoya quvurchasi; 3 - uch tomonli o'tkazgich; 4 - vintli qisqich; 5 - bug' uzatish uchun shisha nay; 6 - haydash kolbasi; 7 - haydaluvchi modda va suv; 8-Klyayzen nasadkasi; 9 - termometr; 10 - sovitgich; 11 - alonj; 12 - qabul qiluvchi idish; 13 - bug' chiqaruvchi nay.

Haydash vaqtida haydash kolbasi ham qizdirilib turiladi, aks hol-da suv bug'larining kondensatlanishi hisobiga haydash kolbasidagi suyuqlikning hajmi ortib ketishi natijasida suv bug'i haydash kolbasidagi aralashma oraqlari o'tib, kerakli moddalarni bug' holda o'zi bilan

birga olib ketadi va bug'lar sovutgichda kondensatlanib, yig'gich idishga yig'iladi.

Moddalarni vakuumda haydash.


Ba'zi organik birikmalar yuqori haroratda qizdirilganda, o'z qaynash temperaturasiga yetmay parchalana boshlaydi. Shuning uchun bunday moddalarni vakuum ostida haydab tozalanadi. Ma'lumki, moddalarning qaynash temperaturasi atmosfera bosimiga bog'liq. Kamaytirilgan bosimda yoki vakuumda moddalarni oddiy sharoitga qaraganda ancha past temperaturada qaynaydi (6-rasmga qarang).



6-rasm. Moddalarni vakuumda qaynash haroratlarining o'zgarishi.

Berilgan bosimlarda P (mm. sim. ust.) moddalarning qaynash temperaturalarini aniqlash nomogrammasi.

Vakuum hosil qiluvchi suv nasoslar 10-25 mm simob ustuniga cha va maxsus moy nasoslari 1-10 mm simob ustunigacha bosimni pasayitiradi. Moddani vakuumda haydash uchun ishlataladigan asbob 7-rasmida ko'rsatilgan.



7-rasm. Vakuumda haydash asbobi.

Vakuumda haydash asbobining umumiyo ko‘rinishi:


I, 3 – termometrlar; 2 – kapillyar; 4 – Klyayzen kolbasi; 5 – suvli hammom (qumli); 6 – suvli (havo- yuqori temperaturada qaynaydigan moddalar uchun) sovitgich; 7 – «o‘rgimchak»simon o‘tkazgich; 8 – «o‘rgimchak»simon o‘tkazgichning vakuumga ulanadigan joyi; 9 – haydalayotgan mahsulot (distillyat) uchun yig‘gichlar; 10, 11, 12 – kranlar; 13 – manometr; 14 – xavfni oldini olish uchun sklyanka; 15 – zaharli moddalar bug‘ini (gazini) yutuvchi kolonkalar.

Fraksiyalarga ajratib haydash

Ishning maqsadi: Suyuq aralashmalarni turli temperaturada haydash yo‘li bilan alohida idishlarga yig‘ish usuli fraksiyalarga bo‘lib haydashni hamda toza moddani tahlil qilishni o‘rganish. Haydash temperaturasi bir-biriga yaqin suyuqliklar aralashmasini ayrim fraksiyalarga bo‘lib haydash yo‘li bilan tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Buning uchun turli xil deflegmatorlardan foydalilanadi (8-rasm.).

Benzin aralashmasini fraksiyalarga bo‘lib haydash

Deflegmator va termometr o‘rnatilgan dumaloq tubli kolbaga 50 ml benzin aralashmasidan solib, kolbani Libix sovutkichi va alonjga ulaymiz (8-rasm).



8-rasm. Suyuq aralashmalarni fraksiyaga bo‘lib haydash asbobi.

1 — termometr; 2 — termometr uchun g‘ilofli moslama; 3 — Libix sovutgichi; 4 — past bosim sharoitida haydash uchun vakuum hosil qiluvchi apparatga ulanadigan jo‘mrak; 5 — distillyat; 6 — ajratish uchun deflegmator kolonkasi; 7 — haydash kolbasi.

Kolbani plitkada qizdiramiz va alohida-alohida uchta fraksiyaga ajratib haydaymiz: I-fraksiyani 70°C gacha, 2-fraksiyani 70°C dan 90°C gacha, 3-fraksiyani 90°C dan 120°C gacha haydaymiz. Kolba tagida qolgan qoldiq esa 4-fraksiya deb olinadi.

O‘lchov silindri yordamida har bir qabul idishidagi fraksiya miqdorini o‘lchab, ularning dastlabki aralashma miqdoriga nisbatan

protsent hisobi aniqlanadi. So‘ngra tajribada yo‘qotilgan benzin miqdori hisoblanadi.

Aralashmalarni fraksiyalarga bo‘lib haydash.

Benzol va toluol aralashmasini fraksiyalarga bo‘lib haydash.

Kolbaga 25 ml benzol va 25ml toluol solamiz va aralashma bir tekis qaynash uchun chinni bo‘laklaridan bir nechta tashlanadi. Haydash jarayonida uchta idish olinib, ulardan biriga $80\text{-}90^{\circ}\text{C}$ da haydaladigan fraksiyalar yig‘iladi. Ajratib olingan bu ayrim-ayrim fraksiyalar yana qaytadan haydaladi. Benzol ($T_{qayn} = 80,2^{\circ}\text{C}$) va toluolning ($T_{qayn}=110,6^{\circ}\text{C}$) qaynash temperaturasiga asoslanib ayrim hollarda benzol va toluol ajratiladi.

Nazorat savollari.

1. Organik moddalarni qanday tozalash usullari mavjud?
2. Qattiq organik moddalarni tozalashda kristallantirish, sublimatsiya (vozgonka) usulida qattiq moddalarni tozalash qanday moddalar uchun qo‘llaniladi?
3. Aralashmalarni haydash usuli bilan ajratishda moddalarning asosan qanday xossalari bilish kerak?
4. Atmosfera bosimida haydash, suv bug‘i bilan haydash, moddalarni vakuumda haydash, fraksiyalarga ajratib haydash usullarini qanday birikmalar uchun qo‘llaniladi?

3– LABORATORIYA ISHI.

ORGANIK BIRIKMALARNING SIFAT ANALIZI



Organik moddalardagi elementlarga xos sifat reaksiyalar.

Ishdan maqsad: Sintez qilib olingan yoki biror o'simlikdan ajratilgan har qanday moddani identifikatsiya qilish uchun, avvalo moddaning tarkibiy qismini bilish kerak. Shuning uchun, olingan modda yaxshi tozalanib quritilgach, uning tarkibida qanday elementlar borligini aniqlash maqsadida sifat analiz qilinadi.

Organik birkimlar tarkibini asosan uglerod, vodorod, kislorod va azotdan tashqari galogen, oltingugurt, fosfor va boshqa elementlar tashkil kiladi. Sifat analizida toza organik modda tarkibidagi elementlar oksidlash, yondirish, parchalash yo'li bilan anorganik birkimlarga aylantirilib, so'ngra sifat analiziga asoslangan reaksiyalar yordamida aniqlanadi.

Uglerod va vodorodni aniqlash.

Organik modda tarkibidagi uglerod va vodorod bir necha usul bilan aniqlanadi. Bulardan eng oddiy va keng qo'llaniladigani tekshirilayotgan moddani mis(II)-oksidi ishtirokida qizdirishdir. Buning uchun mutlaq quruq probirkaga biror organik modda, masalan, glyukoza yoki glitserin va oksidlovchi mis(II)-oksidi solib aralashtiriladi. Aralashmdan 3-4 sm yuqoridaan gidroskopik paxta o'rnatib, uning yuzasiga qizdirilgan (suvsizlantirilgan) mis sulfat tuzi sepiladi, ustidan yana bir qatlama paxta yoqiladi. Probirka egik nay o'rnatilgan rezina probka bilan berkitiladi. Nayning ikkinchi uchi kalsiy yoki bariy gidroksid eritmasi solingan probirkaga tushiriladi. Sinalayotgan modda solingan probirkaga qizdiriladi. Bunda modda tarkibidagi uglerod karbonat angidridga, vodorod esa suvga aylanadi. Ularning aniq karbonat angidrid yoki suv ekanligini probirkadagi kalsiy yoki bariy karbonat cho'kmasi (loyqasi) hosil bo'lganda va suvsiz mis(II) sulfat kristallarning qizarishidan bilish mumkin. Uglerod va vodorodni aniqlash qurilmasi 9- rasmida ko'rsatilgan.






Azot va oltingugurtni aniqlash.

Tarkibida azot va oltingugurt bor deb faraz qilingan organik moddadan (jun, soch, tirnoq va boshq.) kimyoviy tarozida 0,1-0,2 g. tortib olib, quruq probirkada kaliy yoki natriy metali bilan birga 20-25 min. qizdiriladi. Natijada organik modda tarkibidagi uglerod va azot metallar bilan reaksiyaga kirishib, sianid hosil qiladi. Oltingugurt esa sulfid holiga o'tadi.


Qizdirilayotgan probirkada bu brikmalar organik kuyindilar bilan qora qurim hosil qiladi. Belgilangan vaqtidan keyin probirkada ichida 5-10 ml sovuq suv bor chinni tigelga solinadi. Bunda probirkada sinib, uning ichida hosil bo'lgan tsianid va sulfid tuzlari suvda eriydi. Eritma filtrlash yo'li bilan shisha sinig'i va qirindilardan tozalanadi. Filtrat teng ikki qismga bo'linadi. Ularning birida azot, ikkinchisida oltingugurt aniqlanadi.

Azotni aniqlash uchun birinchi probirkaga avval bir necha tomchi temir(II)-sulfat, so'ng temir(III)-xlorid eritmalaridan tomiziladi. Bunda har gal yaxshilab chayqatib turib aralashtiriladi. Aralashmaga muhit kislotali bo'lguncha (lakmusda sinang) 10% li HCl eritmasidan qo'shiladi.


Tekshirilayotgan modda tarkibida azot bo'lsa, bir ozdan so'ng cho'kmasimon berlin zangorisi hosil bo'ladi:



Modda tarkibida azot miqdori nisbatan ko'p bo'lsa berlin zangorisi hosil bo'ladi, azot oz bo'lsa, eritma ko'k yashil rangga kiradi. Oltingugirtni aniqlash uchun ikkinchi probirkadagi filtrat ikki qisimga bo'linadi. Birinchisiga 2-3 tomchi qo'rg'oshin atsetat eritmasidan tomiziladi. Aniqlanayotgan oltingugurt qo'rg'oshin sulfid tarzida cho'kmaga tushadi:







Ikkinchisiga - natriy nitroprussid eritmasidan bir necha tomchi tomiziladi. Hosil bo‘lgan kompleks birikma eritmani qizg‘ish rangga bo‘yaydi:



Galoidlarni aniqlash.

Organik modda tarkibidagi galloidlar har xil usullar bilan aniqlanadi. Ulardan eng ko‘p qo‘llaniladigani Beylshteyn va Stepanov usullaridir.

Stepanov usuliga ko‘ra galoidni aniqlash uchun modda tarkibidagi galogeni ion holiga o‘tkazish kerak. Chunki organik moddalarning kovalent bog‘li galogen birikmalari dissotsiatsiyalanmaydi. Buning uchun moddaning spirtdagi eritmasi natriy metali ishtrokida reaksiyaga kiritiladi. Ma’lumki, spirt bilan natriyning o‘zaro ta’siridan natriy alkogolyat hosil bo‘lishi jarayonida vodorod ajralib chiqadi. Bu vodorod galoidli birikmani qaytaradi. Ion holiga o‘tgan galoid vodorod bilan vodorod galogenid hosil qiladi. Eritma suv bilan suyul-tiriladi. Natijada vodorod galogenid disosialanadi - eritmada erkin galoid ioni hosil bo‘ladi. U kumish nitrat ta’sirida cho‘kma hosil qiladi. Buni tajribada ko‘rish uchun, probirkaga 3 tomchi xloroform va 3 tomchi etil spirt solib aralashtiramiz, unga kattaligi moshdek keladigan natriy metali tushiramiz. Probirkada shiddatli reaksiya boshlanadi va aralashma loy-qalanadi, chunki spirtda yomon eriydigan osh tuzi hosil bo‘ladi. Natriy to‘la reaksiyaga kirishib bo‘lgach, probirkadagi aralashmaga 5 -6 tomchi distillangan suv qo‘shing. Aralashma kislotali muhitga ega bo‘lishi uchun unga 2-3 tomchi 10% li nitrat kislota eritmasidan tomizing. So‘ngra 5% li kumush nitrat eritmasidan 2-3 tomchi qo‘shiladi. Shunda pag‘a-pag‘a oq, cho‘kma - kumush xlorid hosil bo‘ladi:



Tekshirilayotgan birikma tarkibida brom bo‘lsa cho‘kma sarg‘ish, yod bo‘lsa sariq rangga bo‘yaladi

Beylshteyn usuliga ko'ra organik modda va mis(II)-oksidi gaz alangasida qizdiriladi. Mis(II)-oksid tarkibidagi kislород organik modda tarkibidagi elementlarni oksidlaydi, mis esa galoid bilan birikadi. Masalan, yodoform tarkibidagi yod quydagicha topiladi:



Reaksiya natijasida hosil bo'lgan mis galogenid alangani yashil tusga bo'yaydi. Bu organik modda tarkibida *galoid* borligini bildiradi.

Analiz tartibi: uzunligi 10 sm. atrofidagi mis simning uchi spiral qilinib, gaz alangasida rangi doimiy bo'lguncha qizdiriladi. Sim sovitgach, uning yuzasi oksidlanib, qorayadi. Tekshirilayotgan moddaga (masalan - xloroform, yodoform, dixloretan va sh.o'.) simning spiral uchini botirib olib, alangaga tutiladi. Bunda alanga tezda tiniq yashil rangga bo'yaladi. Alangani yashil tusga o'tishi, galoid borligidan dalolat beradi.

Organik moddalarning miqdor analizi.


Organik birikmalar tarkibidagi elementlarning miqdorini foiz hisobida aniqlash miqdoriy analiz deb ataladi. Elementlarni miqdoriy aniqlashda uch xil analiz usuli qo'llaniladi: makroanaliz, yarim mikroanaliz va mikroanaliz. Keyingi yillarda yarim mikroanaliz va mikroanaliz usullari keng qo'llanilmoqda.

Elementlarni miqdoriy analiz qilishda sifat analizida ishlatiladigan reaksiyalardan foydaliniladi.

Uglerod va vodorodni aniqlash. Bu elementlarning miqdorini aniqlash usulini birinchi bo'lib nemis kimyogari Yu.Libix taklif qilgan. Massasi aniq biror birikma mis(II)-oksidi bilan aralashtirilib, maxsus shisha nayda qizdiriladi, ajralib chiqayotgan suv va karbonat angidridlarning massasini aniqlash uchun ma'lum yutgichlar - kalsiy xlorid, o'yuvchi kaliyning kuchli eritmalaridan o'tkaziladi (9-rasm)

So'ngra kalsiy xlorid bilan o'yuvchi kaliyning so'nggi massasidan dastlabki massasi ayirib tashlansa, suv bilan karbonat angidridning massasi kelib chiqadi. Ammo ishslash vaqtida havodagi CO_2 yutilmasligi uchun kuydirish naychasidan (modda qo'yilgan naychasidan) oldin natron ohak solingan U-simon naycha qo'yiladi.

Masalan, 4,3 mg. modda kuydirilganda 10,2 mg. CO₂ va 1,5 mg. H₂O hosil bo‘ladi.



9-rasm. Elementlarni miqdoriy analiz qilish asbobi.

1-kislородли ballonlar; 2-himoya sklyankasi; 3-muftalar; 4,5,6-kislородни tozalovchi qurilma; 7,8-quritgichlar; 9-namuna qizdiriladigan kvarsdan yasalgan nay; 10-namuna; 11-13 – maxsus pechlar; 14,15 – gazlarni tozalab uzatgichlar; 16,17- havo xajmini aniqlovchi menzurka

Karbonat angidrid va suvning massasiga ko‘ra moddadagi ugle-rod bilan vodorodning foiz miqdori quyidagicha topiladi:

I. Uglerodni topish

$$\begin{array}{ll} 1) \ 44 - 12 & x = 2,8 \text{ mg C} \\ \text{CO}_2 - \text{C} & \\ 10,2 - X & \end{array}$$

Topilgan miqdorni foizga aylantiramiz:

$$\begin{array}{ll} 2) \ 4,3 - 100 & y = 65\% \text{ C} \\ 2,8 - y & \end{array}$$


II. Vodorodni topish.

$$\begin{array}{ll} 1) \ 10 - 2 & x = 0,166 \text{ mg H} \\ \text{H}_2\text{O} - \text{H}_2 & \\ 1,5 - x & \end{array}$$



Foiz hisobida,

$$\begin{array}{ll} 2) \ 4,3 - 100 & \\ 0,166 - U & U = (0,166 \cdot 100) : 4,3 \text{q Z \%} \end{array}$$

Azotni yarim mikroanaliz (Dyuma metodi) metodi bilan aniqlash. Bu usulda birikmalar mis(II)-oksidi bilan aralashtirilib, maxsus pechga joylashgan naychada qizdiriladi (yondiriladi):



Hosil bo‘lgan moddalar sof mis to‘r orqali ishqor eritmasi solingan azotomerga yuboriladi:



Natijada karbonat angidrid bilan suv eritmaning ishqor qismida qolib, sof azot ishqor ustiga azotomer qismiga yig‘iladi. So‘ngra azotning hajmi aniqlangandan so‘ng, quydagi formula bo‘yicha foizi aniqlanadi:

$$\%N_2 = \frac{1,2507 \cdot U - 273 \cdot (R - R') - 100}{760 - (273 + t^0) \cdot a}$$

1.2507 - I ml. azotning normal bosim va temperaturadagi massasi, V-oltingan azotning hajmi, P - barometr ko‘rsatgan bosim, t° -tajriba vaqtidagi temperatura, a - analiz uchun olingan modda massasi.

Nazorat savollari.

1. Organik birikmalarning sifat analizi
2. Organik moddalardagi elementlarga xos sifat reaksiyalar.?
3. Uglerod va vodorodni aniqlash.
4. Azot va oltingugurtni aniqlash.
5. Galoidlarni aniqlashning Stepanov usuli va Beylshteyn usuli.
6. Organik moddalarning miqdor analizi. Azotni yarim mikroanaliz (Dyuma metodi) metodi bilan aniqlash.
 1. 10 g. etil spirtning to‘la yonishi natijasida necha gramm suv va karbonat angidrid hosil bo‘ladi ?
 2. Quyidagi ma’lumotlarga ko‘ra moddaning empirik formulasini aniqlang: C=30,7%; H=36,82%; O=45,23%.
 3. Azotni Dyuma metodi bilan aniqlashda 11,6 mg moddadan 1,634 ml azot olingan (23,5°C va 747 mm sim. ust. da), tekshirilayotgan modda tarkibidagi azotning foiz miqdorini hisoblab toping.
 4. 5,00 mg yodda yondirilganda, 16,92 mg karbonat angidrid bilan

3,46 mg suv ajralib chiqqan. Tekshirilayotgan moddaning molekulyar og‘irligi 78 ga teng, moddaning molekulyar formulasini aniqlang.

Bu birikma uchun qanday struktura formulalar yozish mumkin?

5. 13,02 mg modda mis(II)-oksidi qo‘shib karbonat angidrid muhitida yondirilganda 0,745 ml azot ajralib chiqqan (25°C va 754 mm. sim. ust.da). Tekshirilayotgan birikmadagi azotning (%) miqdorini aniqlang.

4- LABORATORIYA ISHI. ALKANLAR

OCHIQ ZANJIRLI BIRIKMALAR. (Asiklik qator)

Ishniq maqsadi: To‘yingan uglevodorodlarga xos reaksiyalar bilan sifat tahlilini o‘rganish.

Uglevodorodlar - Uglerodning vodorod bilan birikmalari hisoblanib, umuman ochiq zanjirli (asiklik) va yopiq zanjirli (karbotsiklik) birikmalarga bo‘linadi. Uglevodorodlar uglerod-uglerod bog‘larining tabiatiga ko‘ra to‘yingan va to‘yinmagan bo‘ladilar.

To‘yingan uglevodorodlarning umumiy formulasasi $\text{C}_n\text{H}_{2n+2}$ bilan ifodalanadi. Bu yerda $n=1,2,3\dots$ bo‘lib, birinchisi ikkinchisidan CH_2 -guruhgaga farq qiluvchi gomologik qator vujudga keladi (hosil qilinadi). CH_4 -metan, C_2H_6 - etan, C_3H_8 -propan, C_4H_{10} -butan, C_5H_{12} -pentan, va hokazo.


Nomlanishi va izomeriyasi. To‘yingan uglevodorodlar asosan ratsional va sistematik nomenklatura bo‘yicha nomlanadi. Ratsional nomenklatura bo‘yicha alkanlar metanning hosilasi deb qaraladi. O‘rindbosarlar kichigidan kattasi tomon nomlanib, "metan" so‘zi bilan yakunlanadi:



Sistematik nomenklatura bo‘yicha alkanlar quyidagicha nomlanadi:


1. Molekuladagi eng uzun ugldrod-uglerod zanjiri tanlanadi.

2. Tarmoqlanish qaysi tomonga yaqin bo'lsa, shu tomondan raqamlanadi.
3. Tarmoqning zanjirdagi o'rni (son bilan) ko'rsatilib, o'rinbosarning nomi aytildi.
4. Oxirida zanjirning nomi mos to'yingan uglevodorod nomi kabi aytildi.



Izomer deb, elementar tarkibi va umumiy formulasi bir xil bo'lgan, lekin tuzilishi bilan farq qiladigan, hamda kimyoviy va fizikaviy xossalari ham har xil bo'lgan uglevodorodlarga aytildi.

To'yingan uglevodorodlarda izomeriya hodisasi butandan boshlanadi.



n-butan


izobutan (2-metilpropan)

Uglerod atomlarining soni oshishi bilan izomerlar miqdori ham ortib boradi (3-jadval).


3-jadval

Zanjirdagi uglerod atomlarining soni	Izomerlar soni
4	2
5	3
6	5
7	9
8	18
9	35
10	75

To'yingan uglevodorodlar yoki boshqa nom bilan alkanlar yoki parafinlarning dastlabki vakillari tabiiy gaz tarkibida, qolganlari neft tarkibida bo'ladi. Ularni sintetik yo'llar bilan masalan, spirtlar, kislotalar, galogenalkanlarni :



Yoki to‘yinmagan uglevodorodlarni to‘yintirish:




va boshqa reaksiyalar natijasida hosil qilish mumkin. To‘yingan uglevodorodlar kimyoviy reaksiyalarga faol kirishmaydi, ularga oddiy sharoitda konsentrangan kislotalar, o‘yuvchi ishqorlar va kuchli oksidlovchilar ham ta’sir etmaydi. Parafinlar uchun o‘rin almashinish reaksiyasi (galogenlash, nitrolash, sulfolash va boshqalar) xosdir:

Masalan: Nitrolash Konovalov M.I. reaksiyasi:



Alkanlar tarkibidagi bir yoki bir necha vodorod atomining boshqa (atomlar gruppasi) bilan o‘rin almashinishi natijasida shu uglevodorodlar tarmoqlangan zanjirli uglevodorodlarga nisbatan qiyin oksidlanadi. Oksidlanish mahsuloti sifatida spirt, aldegid, keton va karbon kislotalar hosil bo‘lishi mumkin. Alkanlar katalizatorlar ta’sirida (masalan, AlCl_3) yuqori haroratlarda normal zanjirli to‘yingan uglevodorod tarmoqlangan strukturaga ega uglevodorodga aylanishi mumkin.




Metanning olinishi va xossalari

Asbob va idishlar: shtativ, gaz chiqarish nayi o‘rnatilgan probkali probirkha, spirtli lampa yoki gaz gorelkasi, paxta, kristallizator, kislorodli gazometr yoki kislorod olish asbobi, chinni kosacha yoki soat oynasi, pinset, probirkalar va probirkha tutqichi.

Reaktivlar: qiyin uchuvchan organik modda (qand, glitserin yoki parafin), CuO (kukun), ohakli suv, CuSO_4 (suvsizlantirilgan), CH_3COONa yoki CH_3COOK (suvsizlantirilgan), natron ohak ($\text{NaOH}+\text{Ca}(\text{OH})_2$), Bromli suv, KMnO_4 (1% li va 1 n), benzin, ko‘k lakmus qog‘oz, $\text{Na}_2\text{CO}_3(1n)$, H_2SO_4 (kons), HNO_3 (kons), petroley effiri, kerosin.

Quruq probirkaga natriy atsetat bilan natron ohagini 1:2 og‘irlilik nisbatdagi aralashmasidan 2-3 gr solib, probirkani shtativ

qisqichiga tik o‘rnating. Probirkaning og‘zini shisha nay o‘rnatilgan tinqin bilan berkiting. Shisha nayni rezina nay bilan tutashtiring. Probirkani gaz alangasida qizdiring. Bunda ajralib chiqayotgan gaz metandir. Uni avval kaliy permanganatning 1% li eritmasi solingan probirkaga, so‘ngra ichida bromli suv bor probirkaga yo‘naltiring. Eritmalarining rangi o‘zgarmaydi. Qizdirishni to‘xtatmasdan, ajralib chiqayotgan gazni yoqib ko‘ring. Metan yonishi kerak:



Nazorat savollari:


- Quyidagi uglevodorodlarni qaysi biri alkanlar: C_5H_{12} , C_7H_{14} , C_8H_{18} , $\text{C}_{10}\text{H}_{22}$, $\text{C}_{22}\text{H}_{44}$, C_8H_6
- 8, 10, 13 uglerod atomi tutgan alkanlarni formulalarini yozing.
- Butan, pentan, geksan izomerlarining tuzilish formulalarini yozing va nomlang.
- Geptan izomerlarini yozing va nomlang. Birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to‘rtlamchi uglerod atomlarini belgilang.
- Tarkibi C_8H_{18} bo‘lgan alkanni uzun zanjirida 6 ta uglerod atomi tutgan izomerlarini tuzilish formulalarini yozing va IYUPAK bo‘yicha nomlang.
- Izoamilbromid va etilbromiddan Vyurts reaksiysi bo‘yicha alkan sintez qiling.
- Tarkibi C_8H_{18} bo‘lgan alkan birlamchi galoid alkildan Vyurs reaksiysi bo‘yicha bitta modda sifatida hosil bo‘ladi, uni mononitrolansa, uchlamchi nitrobirkma hosil bo‘ladi. C_8H_{18} ning tuzilishini aniqlang.
- Geksanni xlorlash va nitrolash reaksiya tenglamalarini yozing.

5– LABORATORIYA ISHI.



ALKENLAR. TO‘YINMAGAN UGLEVODORODLAR

Ishning maqsadi: To‘yinmagan uglevodorodlarni xos reaksiyalar bilin sifat tahlilini o‘rganish. Qo‘shbog‘ga xos reaksiyalar bilan tanishish.


To‘uinmagan uglevodorodlar deb (alkenlar, olefinlar) molekulasi dagi uglerod atomlaridan ikkitasi o‘zaro qo‘shti yoki uch bog‘ bilan bog‘langan uglevodorodlarga aytildi. Alkenlarning umumiy formulasi C_nH_{2n} bilan, alkin va alkadienlarning umumiy formulasi esa C_nH_{2n-2} bilan ifodalanadi. To‘yinmagan uglevodrodlar, ko‘pincha, gazni, neftning turli fraksiyalarini yoki to‘yingan uglevodorodlarni termik yoki katalitik krekinglash usuli bilan olinadi. Laboratoriya da va sanoatda olefinlar, shuningdek, to‘yingan uglevodorodlarni katalizator ta’sirida degidrogenlash (CrO_3 , 400-600°C), galogenakkillardan vodorodgalogenidni, spirtlardan suvni ajratish (Al_2O_3 , 350-500°C yoki H_2SO_4), asetilen uglevodorodlarni gidrogenlash, sirkal kislota efirlarini piroliz qilish yo‘llari bilan ham olinadi. Masalan:




1. To‘yingan uglevodorodlardan degidrogenlash orqali olish:



2. Spirtlarni degidratlash usuli bilan olish:




Katalizator sifatida H_2SO_4 , H_3PO_4 va Al_2O_3 ishlatish mumkin. Ikkilamchi butil spirtidan Al_2O_3 yordamida buten-2 olinadi:




Reaksiya Zaysev A.M. qoidasi bo'yicha (E-elminlash, ajralish reaksiyasi) ketib, vodorod vodorodi kam uglerod atomidan ketadi.

3. Molekulasida bitta uglerod atomi tutgan birikmalardan alkanlar, alkenlar va aromatik birikmalarni olish mumkin. Buning uchun seolit katalizatoridan foydalaniladi:




Uglerod(II)-oksidini temir, kobalt, nikel katalizatorlari ishtirokida qaytarilsa, alkanlar va alkenlarning aralashmasi hosil bo'ladi:




Agar katalizator sifatida kobalt olinsa, alkenning unumi 80 % ga etadi.

4. a) Alkenlarni mono- (geminal) yoki digalogenli (vitsinal) birikmalardan ishqorning konsentrangan yoki spirtdagi eritmasi ta'sirida olish mumkin:




b) Digalogenli birikmalardan rux metali (kukuni) yordamida qizdirish orqali alken olinadi:




Vitsinal galoid alkan

v) Galoid alkanlardan asoslar (NaOH) ta'sirida Zaysev qoidasi bo'yicha vodorod galogenidlarning ajralishi reaksiyasi asosida olinadi:
 $\text{CH}_3\text{-CH(Br)-CH}_2\text{-CH}_3 + \text{NaOH} \rightarrow \text{CH}_3\text{-CH=CH-CH}_3 + \text{NaBr} + \text{H}_2\text{O}$

5. To'rtlamchi ammoniy asoslaridan qizdirib alken olinadi:




6. Dien va alkinlarni selektiv katalizatorlar ishtirokida vodorod bilan qaytarib alken olinadi:



7. Neftni kreking qilishda hosil bo'ladigan mahsulotlarni past temperatura va bosim ostida haydab alkenlar olinadi.

a) Temperatura 450°C bo‘lganda va Cr_2O_3 katalizatori ishtirokida butandan propen hosil bo‘ladi:



v) Temperatura 600°C bo‘lganda va Cr_2O_3 katalizatori ishtirokida butandan butadien hosil bo‘ladi:



8. Ko‘mirni kokslash jarayonida hosil bo‘ladigan gazlardan alkenlar olinadi. Kokslash reaksiyasi inert atmosferada va ma’lum temperaturalarda olib borilib, metan, etilen va sintez gaz ($\text{CO} + \text{H}_2$) aralashmasi olinadi.

To‘yinmagan dien uglevodorodlardan konyugatsiyalangan qo‘sibog‘li dienlar, masalan, butadien, izopren va shunga o‘xshashlilari sanoat ahamiyatiga ega bo‘lib, butan-butilen fraksiyasini termokatalitik (Al_2O_3 , 550°C) degidrogenlash yo‘li bilan yoki etil spirtdan suv va vodorodni ajratish yo‘li bilan olinadi. Masalan, Lebedev S.V. usulida olish:





Etilenning olinishi va xossalari

Reaktivlar: konsentrangan sulfat kislotasi va 96% li etil spirti.



Ishning bajarilish tartibi. Vyurs kolbasiga 3 ml spirt quyiladi. Unga ehtiyyotkorlik bilan konsentrangan sulfat kislotasi chayqatib turilgan holda qo‘shiladi. Aralashma biroz qiziydi va unga tozalangan qum qo‘sib bir me‘yorda, gaz ajralib chiqishi boshlanguncha gaz gorelkasi alangasida qizdiriladi (10-rasm).

Etilen hosil bo‘lish reaksiyasi quyidagicha boradi:




10-rasm: 1. Bromli suv; 2. KMnO₄ eritmasi

Qo'shbog'ni aniqlash uchun sifat reaksiyalari. Hosil bo'layotgan gaz-etilen tarkibida qo'sh bog' borligini aniqlash uchun gazni oldin bromli suvdan, so'ngra kaliy permanganat eritmasidan o'tkazamiz. Bunda bromli suv rangsizlanadi, kaliy permanganat eritmasining rangi binafsha rangdan sarg'ish rangga o'tadi:



Etilen yonganda sariq alanga berib yonadi:




Nazorat savollari.

1. Quyidagi alkenlarning tuzilish formulalarini yozing: 3-metilpenten-1; 2,3,5-trimetilgeksen-2, simm-metiletiletlen, nosimm-dipropiletlen.
2. C₄H₈, C₅H₁₀ va C₆H₁₂ uglevodorodlari izomerlarining tuzilish formulalarini yozing va sistematik nomenklaturada nomlang.
3. 3-brom-2,2-dimetilpentan va 3,4-dibrom-2,2-dimetilpentandan qanday reagentlar ta'sir ettirib alken olish mumkin?
4. Galoidalkan va bir atomli spirtlardan nosimmetrik- dimetiletlen, trimetiletlen va 3-metilgeksen-1 larni sintez qilish reaksiya tenglamalarini yozing.
5. CH₃CH₂(CH₃)C=C(CH₂CH₃)(CH₂CH₂CH₃) ning sis- va trans- izomerlarini tuzilish formulalarini yozing va nomlang.
6. Molekulyar formulasi C₅H₈, C₆H₁₀ bo'lgan olefinlarni barcha izomerlarining struktura formulalarini yozing.
7. Quyidagi olefinlarning struktura formulalarini yozing va Jeneva nomenklaturasi (sistematik) bo'yicha nomini yozing: izopropiletlen, asimmetrik dimetiletlen, simmetrik dimetiletlen, tetraetiletlen.
8. Hamma ma'lum usullar bilan propilenning olinish reaksiyalari tenglamalarini yozing.
9. Quyidagi spirtlar va galogenli hosilalardan etilen qatoridagi uglevodorodlarni hosil qiling: butanol-1; 2-metilpropanol-1; 2-metilprolanol-2; 1-brombutan; 2-xlormetilpropan; 3-yod-2-metilbutan; 1-xlorpentan.
10. Etilen qatori birikmalaridagi qo'sh bog' qanday sifat analiz yordamida aniqlanadi?


6– LABORATORIYA ISHI. ALKINLAR

Ishnig maqsadi: To‘yinmagan asetilen uglevodorodlarni xos reaksiyalar bilan sifat tahlilini o‘rganish. Uch bog‘ga xos reaksiyalar bilan tanishish.

Uch bog‘li to‘yinmagan uglevodorodlar - alkinlarning eng muhim vakili asetilen $\text{CH}\equiv\text{CH}$, sanoatda metanni yuqori temperaturada pirolizlash, kalsiy karbidga suv ta’sir ettirish yoki digalogenalkillarga o‘yuvchi ishqorlarning spirtdagi eritmasini ta’sir ettirish yo‘li bilan olinadi. Masalan:




To‘yinmagan uglevodorodlar uchun xarakterli reaksiya birikish reaksiyalaridir. Bunga sabab qo‘shbog‘dagi π -bog‘ning oson uzilishi va uning qutblanuvchanligidir. Etilen va asetilen qatori uglevodorodlarini ma’lum sharoitda vodorod, galogenlar, galogenvodoroqlar bilan reaksiyaga kirishib, to‘yingan uglevodorodlar va ularning hosilalarini hosil qiladi. Bundan tashqari, ular o‘rin almashinish, polimerlanish va boshqa reaksiyalarga ham kirishadi.



Asetilen qatori uglevodorodlarida uchbog‘ tutgan uglerod atomidagi vodorod metall atomlari bilan almashib, asetilen uglevodorodlarining hosilalari - asetilenidlar hosil qiladi.




Asetilen va uning gomologlari aktiv vodorod atomiga ega modalar (spirtlar, kislotalar) bilan reaksiyaga kirishib, oddiy yoki murakkab vinil efirlar hosil qiladi. Bu hodisa *vinillash reaksiyasi* deb ataladi.






Oksidlanishga moyillik – to‘yinmagan uglevodorodlar etilen qatoridan asetilen qatori uglevodorodlariga o‘tgan sari ortib boradi.

Asetilen qatori uglevodorodlari uchbog‘ning uzilishi hisobiga oson oksidlanadilar:



Etilen, dien va asetilen qatori uglevodorodlari to‘yinmagan bog‘lar hisobiga polimerlanib, yuqori molekulali birikmalar hosil qiladi.



To‘yingan va to‘yinmagan uglevodorodlar texnikada va xalq xo‘jaligida yoqilg‘i, erituvchi, surkov moylari, kimyo sanoatida galogenli hosilolar, spirtlar, aldegidlar, kislotalar, polimerlar, sun’iy tolalar, yelimlar va shunga o‘xshash birikmalar ishlab chiqarishda xom ashyo sifatida keng qo‘llaniladi.

Asetilennenning olinishi va xossalari


Reaktivlar:

1. Kalsiy karbid
2. Bromli suv.
3. Kaliy permanganat eritmasi.

Asetilen kalsiy karbidning suv bilan reaksiyasida hosil bo‘ladi:



Asetilen olish uchun, Vyurts kolbasiga kalsiy karbid bo‘lagidan solib, tomizgich voronka orqali suv tomiziladi. Kolbada shiddatli reaksiya ketib, nay orqali asetilen gazi ajralib chiqadi (II-rasm). *Uchbog‘ni aniqlash uchun sifat reaksiyalari*. Hosil bo‘layotgan gaz-asetilen tarkibida uchbog‘ borligini aniqlash uchun gazni oldin bromli suvdan, so‘ngra kaliy permanganat eritmasidan o‘tkazamiz. Bunda bromli suv va kaliy permanganat eritmasi rangsizlanadi.



Asetilen yonganda tutab yonadi. $2\text{CH}\equiv\text{CH} + 5\text{O}_2 \rightarrow 4\text{CO}_2 + 2\text{H}_2\text{O}$

Nazorat savollari.

- Quyidagi birikmalar: metil asetilen, dimetilasetilen, vinil-asetilen, izopropilasetilen, ikkilamchi butilasetilen, izobutilasetilenning tuzilish formulasini yozing va Jeneva nomenklaturasiga ko'ra nomlang.
 - Gidrogenlanganda 2-metilpentan hosil qiladigan hamma asetilen va dien uglevodorodlarning struktura formulasini yozing. Ularni ratsional va Jeneva nomenklaturasiga ko'ra nomlang.
 - 3,1,2-dibrombutanga; 1,1-dibrombutanga ishqorning spirtli eritmasi ta'sir ettirilganda qanday birikmalar hosil bo'ladi?
 - Quyidagi o'zgarishlar natijasida qanday birikma hosil bo'ladi:
- $$\text{CH}_3-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}=\text{CH}_2 \xrightarrow{+\text{Br}_2} \text{KOH} \xrightarrow{\text{(spirtli eritmasi)}} \text{NaNH}_2 \xrightarrow{\text{C}_2\text{H}_5\text{I}}$$
- Quyidagi uglevodorodlar: asetilen, metilasetilen, izopropil-asetilen uchun Kucherov reaksiyasi tenglamasini yozing.
 - Asetilenning - sianid kislota, sirka kislota, etil spirt bilan o'zaro ta'sirlashuvidan (tegishli katalizatorlar ishtirokida) qanday birikmalar hosil bo'ladi?

7 – LABORATORIYA ISHI

UGLEVODORODLARNING GALOGENLI HOSILALARI

Ishning maqsadi: Uglevodorod molekulasidagi bir yoki bir necha vodorod atomining galogen bilan almashinuvidan hosil bo‘lgan moddalar – uglovodorodlarning galogenli hosilalarini tajribada olinish usullari va ularni fizik-kimyoviy tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Uglevodorodlarning galogenli hosilalari molekulasidagi galogen atomi soniga qarab mono-, di-, tri- va poli- galogenli hosilalar, galogenning turiga qarab esa fторli, bromli, yodli yoki xlorli galogenalkillarga bo‘linadi. Ular uglevodorod radikaliga mos holatda to‘yingan va to‘yinmagan bo‘lishi mumkin. Masalan: CH_3Cl metilxlorid, CH_2Cl_2 metilen xlorid, CHCl_3 xloroform, $\text{CH}_3\text{-CH}_2\text{-Br}$ etilbromid, $\text{CH}_2=\text{CH-Cl}$ vinilxlorid, $\text{CF}_2=\text{CF}_2$ tetafktor- etilen.


Galogenalkillarning umumiy formulasini $\text{C}_n\text{H}_{2n+2}\text{X}$ (bunda X= F, Cl, Br, I) bilan ifodalash mumkin.

Nomenklaturasi va izomeriyasi. Tarixiy nomenklaturaga ko‘ra tegishli bir valentli uglevodorod radikallarining nomiga galoid nomini qo‘shish bilan nomlanadi.

Sistematik nomenklaturaga asosan oldin galogen atomi bog‘langan uglerod atomining zanjiridagi raqami, so‘ngra esa galogen va uglevodorodning nomi aytildi.

Izomeriya hodisasi galogenalkillarda gomologik qatorning uchinchi vakilidan boshlanadi. Bunda izomeriya uglerod skeletining va galogen holatining o‘zgarishi hisobiga sodir bo‘ladi:

CH_3Cl	metil xlorid, xlormetan
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{Cl}$	propilxlorid, 1-xlorpropan
$\begin{matrix} \text{CH}_3 & \text{CH}-\text{CH}_3 \\ & \\ & \text{Cl} \end{matrix}$	izopropilxlorid, 2-xlorpropan
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{Cl}$	n-butilxlorid, 1-xlorbutan
$\begin{matrix} \text{CH}_3 & \text{CH}_2 & \text{CHCH}_3 \\ & & \\ & \text{Cl} & \end{matrix}$	ikkilamchi butilxlorid, 2-xlorbutan
$\begin{matrix} \text{CH}_3 & \text{CH}-\text{CH}_2\text{Cl} \\ & \\ & \text{CH}_3 \end{matrix}$	Birlamchi izobutilxlorid, 2-metil-1-xlorpropan




uchlamchi butilxlorid
2-metil-2- xlorpropan

OLINISH USULLARI.

To‘yingan uglvodorodlarni galogenlash, alkenlarni gidrogalogenlash, spirtlardagi -OH guruhni galogenga almashtirish usullari bilan, olinadi.



To‘yinmagam uglevodorodlaning galogenli hosilalari, masalan, vinil xlorid, asetilenga vodorod xlorid ta’sir ettirib olinadi.




Fizik va kimyoviy xossalari. Galogenalkillar suvda erimaydi, yomon yonadi, issiqlik ta’siriga chidamlı, Galogenalkillar tarkibidagi galogen atomlari boshqa atom va radikallar bilan almashinish reaksiyasiga kirishadi. Uglerod bilan galogen orasidagi kimyoviy bog‘da galogen atomining uglerodga nisbatan manfiylikka moyilliigi katta, shuning uchun elektronlar zichligi galogen atomiga tomon siljigan bo‘ladi. Buning oqibatida galogenli hosilalarda kovalent bog‘ qutblanadi va o‘rin almashinish reaksiyalari osonlashadi.




Molekuladagi galogen atomlarining qo‘zgaluvchanligi yoddan ftorga tomon pasayib boradi: $\text{I} > \text{Br} > \text{Cl} > \text{F}$

Ular suv bilan ishqoriy muhitda gidrolizlanadi, oson qaytariladi, ishqorning absolyut spirtdagi eritmasi ta’sirida vodorod galogenid ajralib chiqib, to‘yinmagan uglevodorod hosil bo‘ladi.



Ammiak va metallar ta’sirida yangi moddalar - aminlar va metall organik birikmalar hosil bo‘ladi.



Sanoatda uglevodorodarning xlorli va ftorli hosilalari keng ishlatiladi. Ular plastmassalar, sintetik kauchuklar, tolalar, pestisidlar va dorivor moddalar olish uchun xom ashyo, sof holda erituvchilar hamda sovituvchi freonlar sifatida ishlatiladi. Masalan: CHCl_3 xloroform, $(\text{CH}_3-\text{CCl}=\text{CH}-\text{CH}_3)$ polixloropren kauchuk, $\text{CF}_3\text{-CFCl}_2$ freon-12.


Freonlar deb- metan va etanlarni ftxorxlor xosilalariga aytildi. Bular gaz xolatdagi moddalar yoki kuchsiz xidga ega bo'lgan, juda kam toksik va mutlaqo yonmaydigan quyi qaynar suyuqliklardir. Bunday xususiyat ularga sovitish mashinalarida sovitish agenti sifatida keng qo'llanilishni taminladi. Freonlarni ahamiyatli qo'llanilish oblasti – ayrim moddalarni aerozol changitishdir. Freonlar ftorolefinlar ishlab chiqarishda oraliq mahsulotlar hamdirlar.

Freonlar uchun kimyoviy tarkibga mos keluvchi qiqartrma nomlar belgilangan (freon-12, freon -113 va shu kabilar).

So'ngi raqam ftor atomlari sonini ko'rsatadi, o'ngdan 2-raqam vodorod atomlari sonidan bitta ortiq sonni, chapdan birinchi raqam esa molekuladagi uglerod sonidan bitta kam sonni.

Masalan, freon-12 da ikkita ftor atomi bor, vodorod yo'q va bir uglerod atomi bor, bu esa CCl_2F_2 formulani beradi. Freon-113 etanni $\text{C}_2\text{Cl}_3\text{F}_3$ xosilasini ifodalaydi va shu kabilar.

Ahamiyatli freonlar sanoatda xlorni ftor bilan quyidagi moddalar xloroform, tetraxlormetan, tetra- penta- va geksaxloretan va metilxlorform asosida oladilar. Quyida ayrim freonlarning nomi va qaynash (kondensatlanish) haroratlari atmosfera bosimida keltirilgan:





Texnikada eng katta ahamiyatga egalari freon-12, freon-22 va freon-113. Chuqur sovitishda quyi qaynovchi freon-13 va freon-23 lar qo'llaniladi.


ETIL BROMID SINTEZI.

Reaktivlar: 1. Etil spirt, 95,56% - 40ml.
2. Kaliy bromid - 60 g.
3. Konsentrangan sulfat kislota - 75 ml

Asosiy reaksiya:



Reaksiya mexanizmi:




Qo'shimcha reaksiyalar:



Dumaloq taglik 300 ml xajmdagi kolbaga 40 ml spirt, 35 ml suv quyamiz. Uni doimiy chayqatib, sovitib turib asta sekin 75 ml konsentrangan sulfat kislota qo'shiladi. Aralashmani uy xaroratigacha sovitib, unga aralashtirib kaliy bromid solinadi. Kolbani uning egik nayi orqali suvli sovutgichning bir tomonini, sovitgichning ikkinchi tomoniga allonjni ulaymiz. Etil bromidning qaynash temperaturasi 38,4°C bo'lgani uchun, allonjni muz bilan sovitilgan suvning ichiga tushiriladi. Etil bromid qabul qiluvchi idish ichidagi suv ostiga yig'iladi. Reaksiya aralashmasini yig'uvchi idishga moysimon tomchilar tushishi tugaguncha qizdiriladi (11-rasm).

11-rasm. Etil bromid sintezi uchun asbob.



Atmosfera bosimida haydash asbobi: 1-haydash kolbasi; 2,4- termometrlar; 3-qo‘ndirma; 5- suvlisovutgich; 6-alonj; 7-qabul qilgich idishi; 8-suvli (moyli) hammom

Haydash kolbasiga termometri to‘g‘ri o‘rnatish ko‘rsatmasi.

Reaksiya tugagach, etil bromid ajratgich voronkasi yordamida suvdan ajratiladi, kalsiy xlor bilan quritiladi, so‘ngra etil bromid haydash usuli bilan tozalanadi. Etil bromidning xajmini aniqlanib nazariy unumga nisbatan foiz miqdorida topiladi (4-jadval).

Dastlabki moddalarining fizik-kimyoviy konstantalari.

4-jadval

Nº	Modda formularasi	Molekulayar massasi	Zichligi g/sm ³	Qaynash temp. T°C	Suyuqlanish temp. T°C	Eruvchanlik
1	Etanol: C ₂ H ₅ OH	46,07	0,789	78,3	-114	Sp., ef., xlf
2	H ₂ SO ₄	98,08	1,84	336,5	10,4	Spirt
3	KBr	119,01	2,75	137,6	728	Efir
4	C ₂ H ₅ Br	108,97	1,455	38,4	-119	sp., ef., xlf.

Reaksiyaga olindi:

5-jadval

Nº	Modda formulasi	Berilgan modda miqdori, g	Berilgan modda miqdori, mol	Ortiqchalik koeffitsienti
1	Etanol: C_2H_5OH	31,44	$31,44 : 46,07 \approx 0,682$	$0,682 : 0,504 = 1,353$
2	H_2SO_4	138	$138 : 98,08 \approx 1,407$	$1,407 : 0,504 = 2,792$
3	KBr	60	$60 : 119,01 = 0,504$	$0,504 : 0,504 = 1$

Hisoblashlar (5-jadval):

I. Berilgan 25 g KBr. Mollarda: $25 : 119,01 = 0,210$

Ishlatiladigan moddalar hisobi:

$$H_2SO_4 : 0,21 \cdot 2,729 \cdot 98,08 = 57,506$$

KBr moli • ortiqchalik koef. • mol massa

$$57,506 : 1,84 = 31,253 \text{ ml.}$$

1. C_2H_5OH : $0,21 \cdot 1,353 \cdot 46,07 = 13,089 \text{ g.}$

$$13,089 : 0,789 = 16,589 \text{ ml}$$

Tekshirish:

2. H_2SO_4 : KBr --- H_2SO_4

$$60 \text{ -- } 138$$

$$25 \text{ -- } X$$

$$X = (25 \cdot 138) : 60 = 57,5$$

$$X = 57,5 - 57,5 = 0; X = 0; X \leq 0,3 \text{ bo'lishi kerak.}$$

II. C_2H_5OH : KBr --- C_2H_5OH :

$$60 \text{ ---- } 31,44$$

$$25 \text{ --- } X$$

$$X = (25 \cdot 31,44) : 60 = 13,01$$

$$X = 13,089 - 13,01 = 0,011. X = 0,3 \text{ bo'lishi kerak.}$$

III. Olingan modda chiqishining nazariy va amaliy (foiz %) miqdori.

Nazariy hisob:

KBr --- C_2H_5Br Molekulyar massasi:

$$119,01 - 106,97$$

$$25 - X \quad X = A \text{ gramm. (Nazariy unum miqdori)}$$

Amaliy unum:

A – 100

U – X

X= B gramm (Amaliy unum miqdori)

Nazorat savollari:


1. 7 gramm qo'sh bog'li uglevodorodga 16 gramm brom birikadi. Uglevodorodning molekulyar massasini aniqlang.
2. Quyidagi izomer birikmalarini-2-metilgepten-3 va 2-metilgepten-2 qanday reaksiyalar orqali farqlash mumkin.
3. Tarkibi $C_8H_{18}O$ bo'lgan spiritning ikkita izomeri degidratlash reaksiyasiga uchratilsa, bir xil alken hosil bo'ladi. Alkenni oksidlansa, aseton va valerian kislota $CH_3-CH_2-CH_2-CH_2-COOH$ hosil bo'ladi. Dastlabki spirtlarning tuzilish formulalarini yozing.
4. Triftorpropenga $CF_3-CH=CH_2$ bromid kislotaning birikishi Markovnikov qoidasiga teskari boradi. Buning sababini tushuntiring.
5. Etilenning brom bilan reaksiyasini metil spirtida olib borilsa CH_2Br-CH_2Br bilan birga $Br-CH_2-CH_2-O-CH_3$ hosil bo'ladi. Reaksiya tenglamasini yozing va tushuntiring.
6. Tarkibi C_4H_8 alkenning izomerlarini ozonlashdan hosil bo'lgan birikmalarni suv bilan parchalansa, qanday moddalar hosil bo'ladi?
7. Alkenlarni ishlatish sohalariga misollar keltiring.
8. Organik moddalar tarkibidagi galogenni qanday aniqlash mumkin?
9. C_4H_9J , $C_4H_8Cl_2$, C_2H_4BrCl , $C_3H_4Br_2$, $C_3H_5Br_3$, $C_2H_2Cl_4$ galogeli birikmalarning izomerlari tuzilishi formulalarini yozing.
10. 2,3-dixlorbutandan 2,2-dixlorbutan sintez qilish reaksiya tenglamasini yozing.
11. Asetilendenan vinil xlorid, trixloretilen, tetraxloretan sintez qilish reaksiya tenglamalarini yozing.
12. $C_5H_{11}OH$ spiritning izomerlarini yozing va PBr_3 bilan amil bromidlar sintez qiling.
13. Optik faol butil spirtidan qanday reagent ta'sir ettirib, optik faol butil xlorid olish mumkin.
14. Izobutilenga HBr ning benzoil peroksidi ishtirokidagi reaksiyadan qanday butil bromid hosil bo'ladi. Reaksiya borishini izohlang.

8 –LABORATORIYA ISHI


SPIRTLAR VA FENOLLAR.

Ishning maqsadi: Uglevodorod molekulasi dagi bir yoki bir necha vodorod atomining gidroksil guruhi bilan almashinuvidan hosil bo‘lgan moddalar – uglovodorodlarning gidroksil guruhli hosilalarini –spirtlar va fenolarni tajribada olinish usullari, kimyoviy reaksiyalari bilan amalda tanishish va ularni fizik-kimyoviy tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.


Spirtlar. Spirtlar deb, R-OH umumiy formulaga ega bo‘lgan birkimalarga aytildi. Bu yerda R-alkil guruhi bo‘lib, birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi bo‘lishi, ochiq zanjirli, halqali, yoki qo‘sish bog‘ yoki aromatik halqa tutishi mumkin:




Benzyl spirti



Tsiklogeksil
spirti



uchlamchi-Butil spirti



Allil spirti



Vinil spirti




Methanol


To‘yingan spirtlar 3 xil: -karbinol bo‘yicha, sistematik va tarixiy nomenklaturalar asosida nomlanadi. M-n:



metilkarbinol, etanol, etil spirit




Izo-propilkarbinol, 2-metilpropanol,
izo-butil spirti



Trimetilkarbinol, 2-metilpropanol-2,
uchlamchi-butil spirti

Spirtlar galoidalkillarni suv yoki NaOH bilan gidroliz qilib olinadi. Suv bilan gidroliz qilinganda reaksiya qaytar, ishqor bilan gidroliz qilinsa, oxirigacha boradi:




Spirtlarni magniyorganik birikmalar asosida sintez qilish mumkin:




Bu usulda chumoli aldegiddan birlamchi, boshqa aldegidlardan ikkilamchi, ketonlardan uchlamchi spirtlar hosil bo‘ladi.


Spirtlarni olish usullaridan biri alkenlarga suv ta’sir ettirishdir. Bu reaksiya H_2SO_4 , H_3PO_4 , Al_2O_3 lar ishtirokida boradi. Bunda kislota faol proton beradi va u alkenga birikib, suv molekulasining birikishiga olib keladi:



Spirtlar aldegid va ketonlarni Ni, Pt, Pd ishtirokida vodorod bilan qaytarib olinadi:



Spirtlarni oksosintez usuli bo‘yicha $CO + H_2$ dan olish mumkin. Bunda ishlatilayotgan katalizatorlarning tabiatiga qarab metanol va boshqa to‘yingan spirtlarning aralashmasi hosil bo‘ladi:



Spirtlarning reaksiyaga kirishish qobiliyati undagi O–H guruhi va alkil radikalining tabiatini bilan belgilanadi.


Spirtlar kuchsiz kislotalardir:

Spirt	CH ₃ OH	CH ₃ CH ₂ OH	(CH ₃) ₂ CHOH	(CH ₃) ₃ CHOH
pK _a	15,2	15,8	16,9	19,2



(suvdagi
eritma
uchun)

Eng kuchli kislota metanol hisoblanadi.


Spirtlar natriy metali bilan reaksiyaga kirishib alkogolyatlarni hosil qiladi, masalan:




Alkogolyatlar kuchli asoslar bo‘lishi bilan bir qatorda kuchli nukleofil reagentlar hisoblanadi. Ular oson alkillanadi (Vilyamson reaksiyasi) va asillanadi. Reaksiya natijasida oddiy va murakkab efirlar hosil bo‘ladi:



Alkogolyatlar ta’sirida galogenalkanlardan galogenvodorodlar ajralib, etilen va asetilen uglevodorodlar hosil bo‘ladi:



Birlamchi spirtlar oksidlanib, aldegidlarni, ikkilamchi spirtlar esa ketonlarni hosil qiladi.



Metanol yiliga 10 mln. tonnadan ortiq ishlab chiqariladi. U boshqa erituvchilarni (oddiy va murakkab efirlarni) sintez qilishda asosiy xom ashyo hisoblanadi. Shuningdek spirtlar (etanol) Lebedev usuli bilan butadien, atseton (izopropil spirt), plastifikator (butanol-1) olishda ishlatiladi.

Oddiy efirlar. Oddiy efirlar deb, spirt molekulasi dagi vodorodning uglevodorod qoldig‘iga almashishidan hosil bo‘lgan birikmalarga aytildi. Bunda uglevodorod qoldig‘i bir xil (R—O—R) yoki har xil bo‘lishi (R—O—R¹) mumkin.

Oddiy efirlar quyidagicha nomlanadi:

$C_2H_5-O-C_2H_5$ dietil efiri; etoksiyan



CH_3-O-CH_3 dimetil efiri; metoksimetan

$CH_3-CH_2-O-CH_3$ metiletil efiri, metoksiyan va h.k..


Oddiy efirlar natriy alkogolyatlarni galoidalkillar bilan reaksiyasidan olinadi (Vilyamson usuli):




Eng muhim efir bo‘lgan dietil efirni etil spirtiga ortiqcha miqdordagi sulfat kislota ta’sir ettirib olinadi:



Reaksiyaning ikkinchi bosqichida boshqa spirt ta’sir ettirilsa aralash efir hosil bo‘ladi:



Agar spirt 300^0C da Al_2O_3 ta’sirida qizdirilsa suv chiqib ketib, oddiy efir hosil bo‘ladi:




Dietil efir metallorganik sintezlarda va tibbiyotda keng qo‘llaniladi. Diizopropil efiri va metil-uchlamchi-butil efirlari benzining sifatini oshirishda antidetonator sifatida ishlatiladi.


Molekulasida kislorod atomi tutgan aromatik birikmalarni ikkiga bo‘lish mumkin: fenollar va aromatik spirlarga. Fenollar kimyo sanoatida katta ahamiyatga ega.

Olish usullari:


1. Ko‘mirdan koks olish jarayonida hosil bo‘lgan smoladan fenol va orto-, para-, meta-krezollar ajratib olinadi:




Fenol



o-krezol



m-krezol




p-krezol


2. Benzoldan fenol olish uchun u sulfolanadi va ishqor bilan qizdiriladi:



3. Izopropilbenzolni havo kislорodi bilan oksidlash:




4. Diazobirikmalardan olish:





Xossalari. Fenol molekulasining OH guruhi kislotali xususiyatni namoyon qiladi:


1. Fenol ishqor eritmasida oson eriydi:



2. Fenolyatlardan oddiy efirlar olinadi:






3. Fenolyatlardan murakkab efirlar olinadi:




Fenol aromatik yadrosi reaksiyalari:

1. Galoidlash:







2. Sulfolash:




3. Nitrolash:




4. Nitrit kislota ta'siri:




5. Agar natriy fenolyat CO_2 atmosferasida bosim ostida qizdirilsa, salitsil kislota tuzi hosil bo'ladi:




6. Salisil kislotani natriy fenolyatga CCl_4 ta'sir ettirib ham olish mumkin:




7. Xloroform ta'sirida esa saltsil aldegidi hosil bo'ladi (Reymer-Timan reaksiyasi):




8. Fenolning formaldegid bilan kondensatsiyalanishi natijasida fenol-formaldegid smolalar hosil bo'ladi:




Ikki atomli fenollar



orto-dioksibenzol
pirokateksin




meta- dioksibenzol
rezorsin




para-dioksibenzol
gidroxinon

Pirokatexin o-dixlorbenzolni gidroliz qilib olinadi, rezorsin esa meta-benzoldisulfokislotaning ishqor bilan ta'sirlanishi natijasida hosil bo'ladi. Gidroxinon esa para-benzoxinonni qaytarib olinadi. Pirokatexin va gidroxinon fotografiyada ishlataladi.


Aromatik spirtlar



Benzyl spirt



trifenilmetanol




2-feniletanol

Aromatik spirlarni sintez qilish uchun gidroliz, metallorganik sintez, karbonil guruhni qaytarish kabi ma'lum usullardan foydalaniladi.


SPIRTLAR VA FENOLLAR MAVZUSIGA OID TAJRIBALAR

Sirka kislotasining etil efirini sirka ksilotasi va etil spirti asosida sintez qilish.

Reaksiya sxemasi: (katalizator H₂SO₄)




Qo'shimcha ketadigan reaksiya:



$\begin{array}{c} \text{CH}_3-\text{C} \\ \parallel \\ \text{OCH}_2\text{CH}_3 \end{array}$ etilasetat	Molekulyar massasi= 88,10 g/mol; $T^0_{\text{qaynash}} = 77,2^{\circ}\text{C}$; $T^0_{\text{suyuq.}} = -83,6^{\circ}\text{C}$; $d_{\text{zichligi}} = 900,6 \text{ kg/m}^3$; $n^{20}_{\text{d}} = 1,3724$	Reaktivlar: Etanol- 95%-22,5 ml (0,37 mol), sirkal kislota- 20 ml (0,3 mol); H_2SO_4 - 2,5 ml ($d=1,83 \text{ g/cm}^3$; CaCl_2 , NaCO_3 , Na_2SO_4 .
---	--	--

Reaksiya o'tkaziladigan asbobning sxemasi:




12-Rasm. Sirkal kislotaning etil efirini (etilasetat) olish asbobi.

Ishning bajarilish tartibi: Vyurs kolbasiga 2,5 ml etanol, 2,5 kons. H_2SO_4 solib qumli hammomda 140°C gacha qizdiriladi (12-rasm). 140°C bo'lgach 20 ml etanol va 20 ml sirkal kislota aralashmasi tomizgich varonkadan chiqayotgan mahsulotning tezligiga mos ravishda tomiziladi. Tomizib bo'lgach, 15-20 minut qizdirish (140°C) davom ettiriladi. Chiqqan mahsulotni ajratgich varonkasida reaksiyaga kirmay qolgan sirkal kislotadan Na_2CO_3 2% eritmasi bilan yuviladi. Reaksiyaga kirmay qolgan spirt esa kalsiy xlorid (CaCl_2) 5% li eritmasi bilan yuviladi. Mahsulotni ajratib olib (yuqori qismi) CaCl_2 da quritib, Vyurs kolbasida $71-75^{\circ}\text{C}$ da haydar olinadi. Mahsulot unumi 20 g (70%).



Sirka kislotasining etil efirini sirka angidridi va etil spirti asosida sintez qilish.

Reaksiya sxemasi: (katalizator H₂SO₄)

Umumiy reaksiyasi:



Qo'shimcha ketadigan reaksiya:



Molekulyar massasi = 88,10 g/mol;
 $T^0_{\text{aynash}} = 77,2^\circ\text{C}$;
 $T^0_{\text{suyuq.}} = -83,6^\circ\text{C}$;
 $d_{\text{zichligi}} = 900,6 \text{ kg/m}^3$;
 $n_{\text{d}}^{20} = 1,3724$

Reaktivlar: Etanol-95%-22,5ml (0,37 mol), sirka angidridi-0,5 ml (0,03 mol); H₂SO₄-0,05 ml ($d=1,83 \text{ g/cm}^3$); CaCl₂, NaCO₃, Na₂SO₄).

Kerakli asboblar: probirkalar, stakanlar (2 ta), ajratgich voronkasi, spirt lampasi.


Ishning bajarilish tartibi.

Ikkita probirkaga 0,5 ml dan sirka angidrid va shuncha etil spirti dan quyiladi. Birinchisiga probirkani sovitib turgan holda 1-tomchi konsentrangan sulfat kislotasi tomiziladi. Bir ozdan so'ng probirkani suvdan olib, qaynaguncha qizdiring. Sirka etil efiri xidiga e'tibor berling. Ikkinci probirkadagi aralashmani ishqor bilan lakkus ishtirokida neytrallang. Bunda ham sirka etil efirining xidi keladi. Kisloti va ishqorlar angidriddagi nukleofil almashinish reaksiyasini tezlashtiradi. Hosil bo'lgan modda ajratgich voronkasida ajratiladi va quritiladi. Qurigach, Vyurs kolbasida 71-74°C orasidagi mahsulot haydab olinadi. Unumi 0,4 ml.(76%).

Butilasetatni sirka kislotasi va butanol-1 asosida sintez qilish.

Adabiyot: Васильева А.В. Органический синтез. –М., 1987, 137 с.

Umumiy reaksiya tenglamasi:




Sirka kislotasi butyl spirit butilasetat


Reaksiya quyidagi bosqichlarda ketadi:



Qo'shimcha ketadigan reaksiya:



13-rasm. Reaksiya o'tkaziladigan asbobning sxemasi:



1-reaksion kolba; 2- ajralib chiquvchi suvni yig'ib qoluvchi moslama; 3- Libix sovitgichi.

Reaktivlar: Butanol-1 – 16 ml, muzli sirka kislotasi 10 ml, H_2SO_4 ($d=1,84 \text{ g/sm}^3$) 0.5 ml, natriy karbonat, kalsiy xlorid.

Ishning bajarilish tartibi:


Tubi yumaloq kolbaga ($V= 50 \text{ ml}$) 10 ml sirka kislota, 16 ml butanol-1 va 0,5 ml H_2SO_4 solib aralashtiriladi. Kolbaga rogatkasimon forshtos ulanadi (13-rasm). Unga qaytarma sovitgich (suvli), suv yig‘gich, tomizgich voronka o‘rnataladi. Kolbani qum hammomida qaynaguncha qizdiriladi. Qizdirish davomida suv ajralib, suv yig‘gichga tushadi. Qizdirish 1 soatlarga olib boriladi.

Keyin reaksiyon aralashma xona temperaturasiga sovitilib, ajratgich voronkasiga quyiladi, keyin natriy karbonatning (soda) 10% li eritmsi bilan neytral muhit bo‘lguncha yuviladi va yana suv bilan yuviladi.

Butilasetatni quruq idishga solib, CaCl_2 da quritiladi, keyin Vyurs kolbasida $123\text{--}126^\circ\text{C}$ qaynaydigan fraksiyasi yig‘ib olinadi. Modda unumi - 13,5 g (79%).

Butilasetatni sirka angidridi va butanol-1 asosida sintez qilish.

Umumiy reaksiyasi:





Qo‘shimcha ketadigan reaksiya:




Reaksiya mexanizmi: Eterifikasiya – murakkab efir hosil bo‘lishida kislota va ishqorlar angidriddagi nukleofil almashinish reaksiyasini tezlashtiradi (katalizator).

1. Kislotali (H^+ , H_2SO_4) muhit:






2. Ishqoriy muhit ($\text{Na}^+:\text{OH}$ katalizator; $\text{HO}^-:$):



Umumiy holda:




Ishning bajarilish tartibi:

Tubi yumaloq kolbaga ($V = 20 \text{ ml}$) 1,0 ml sirkə angidridi, 16 ml butanol-1 va 0,05 ml H_2SO_4 solib aralashtiriladi. Kolbaga rogatkasi mon forshtos ulanadi. Unga qaytarma sovutgich (suvli), suv yig'gich, tomizgich voronka o'rnatiladi. Kolbani qum hammomida qaynaguncha qizdiriladi. Qizdirish davomida suv ajralib, suv yig'gichga tushadi. Qizdirish 1 soatlarga olib boriladi (14-rasm).

Keyin reaksiyon aralashma xona temperaturasiga sovitilib, ajratgich voronkasiga quyib olinib, natriy karbonatning (Na_2CO_3) 10% li eritmsi bilan neytral muhit bo'lguncha yuviladi va so'ngra yana toza suv bilan yuviladi.

Butilasetatni quruq idishga solib, CaCl_2 da quritiladi, keyin Vyurs kolbasida $123\text{-}126^\circ\text{C}$ qaynaydigan fraksiyasi yig‘ib olinadi. Modda unumi – 1,5 g (84%).

14-rasm. Reaksiya o‘tkaziladigan asbobning chizmasi:




1-reaksion kolba; 2- ajralib chiquvchi suvni yig‘ib qoluvchi moslama; 3- Libix sovutgichi.

Reaktivlar: Butanol-1 – 1,6 ml, sırka angidridi 1,0 ml, H_2SO_4 -($d=1,84 \text{ g/sm}^3$) 0,05 ml, natriy karbonat, kalsiy xlorid.



$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{O}-\text{COCH}_3$ - butilasetat (sırka kislotasining butil efiri) – murakkab efirning o‘ziga xos hidi keluvchi rangsiz suyuqlik, spirt va efirda eriydi, suvda kam eriydi (25°C da 1g - 100 ml suvda). $T_{\text{qayn.}} = 124\text{-}126^\circ\text{C}$, $c_4^{20} = 0,8820$, $n_d^{20} = 1,3941$.

Sırkaizoamil efiri sintezi (sırka kislotasining izoamil efiri).



Umumiy reaksiyasi:



Reaksiya quyidagi bosqichlarda ketadi:



Oraliq reaksiyalar:




Diizoamil efiri

Ishning bajarilish tartibi:

Tubi yumaloq kolbaga ($V= 20 \text{ ml}$) 15,7 ml sirka kislotasi, 23,5 ml izoamil spirti va 1 ml H_2SO_4 solib aralashtiriladi. Kolbaga rogatkashimon forshtos ulanadi. Unga qaytarma sovutgich (suvali), suv yig‘gich, tomizgich voronka o‘rnatalidi. Kolbani qum hammomida qaynaguncha qizdiriladi. Qizdirish davomida suv ajralib, suv yig‘gichga tushadi. Qizdirish 1-soatlarga olib boriladi (15-rasm).

15-rasm. Tajriba o‘tkaziladigan asbobning chizmasi:



1-reaksion kolba; 2- ajralib chi-quvchi suvni yig‘ib qoluvchi moslama; 3- Libix sovitgichi.

Reaktivlar: Izoamil spirti – 23,5 ml, sirka kislotasi 15,7 ml, H_2SO_4 ($d=1,84 \text{ g/sm}^3$) 1 ml, natriy karbonat, kalsiy xlorid (suvsizlantirilgan).


Keyin reaksiya aralashmasi xona temperaturasigacha sovitilib, ajratgich voronkasiga quyiladi, keyin natriy karbonatning (Na_2CO_3) 10% li eritmsi bilan neytral muhit bo‘lguncha yuviladi va yana toza suv bilan yuviladi.

Izoamilatsetatni quruq idishga solib, CaCl_2 da quritiladi, keyin Vyurs kolbasida $138\text{-}142^\circ\text{C}$ qaynaydigan fraksiyasi yig‘ib olinadi. Modda unumi – 21 g (61,7%).



Izoamilasetat – $\text{CH}_3\text{COOC}_5\text{H}_{11}$ (sirka kislota izoamil efiri, sirka kislota izopentil efiri, sirkaizopentil efiri) – meva hidli rangsiz suyuqlik. Spirt, efir, xloroformlarda aralashadi, suvda qiyin eriydi (100 g suvda 0,31 g), $T_{\text{qayn}}=142^\circ\text{C}$, $c_4^{20}=0,8720$, $n_d^{20}=1,4053$; IQ spektrida: $\nu_{\text{C=O}}=1740 \text{ sm}^{-1}$.

Sirkaizoamil efirini sirka angidri va izoamil spirti bilan sintez qilish


Umumiy reaksiya sxemasi:



Reaksiya bosqichlari:




Qo'shimcha reaksiyalar:



Reaktivlar: Izoamil spirti – 2,5 ml, sirka angidridi – 1,8 ml, H_2SO_4 ($d=1,84 \text{ g/sm}^3$) 0,15 ml, natriy karbonat, kalsiy xlорид.

16-rasm. Reaksiya o'tkaziladigan asbobning chizmasi:



Ishning bajarilish tartibi:

Tubi yumaloq kolbag'a ($V=20 \text{ ml}$) 1,0 ml sirka angidridi, 2,5 ml izoamil spirti va 0,15 ml H_2SO_4 solib aralashdiriladi. Kolbag'a robatka-simon forshtos ulanadi. Unga xolodil'nik (suvli), suv yig'gich, tomiz-gich voronka o'rnatiladi. Kolbani qum hammomida qaynaguncha qizdiriladi. Qizdirish davomida suv ajralib, suv yig'gichga tushadi. qizdirish 1 soatlargacha olib boriladi (16-rasm).

Keyin reaksiyon aralashma xona temperaturasi gacha sovitilib, ajratgich voronkasiga quyiladi, keyin natriy karbonatning (soda) 10% li eritmasi bilan neytral muhit bo'lguncha yuvilali va yana suv bilan yuviladi.


Izoamilatsetatni quruq idishga solib, CaCl_2 da quritiladi, keyin Vyurs kolbasida $138\text{-}142^\circ\text{C}$ qaynaydigan fraksiyasi yig‘ib olinadi. Modda unumi – 2,7 g (69%).

Izoamilasetat – $\text{CH}_3\text{COOC}_5\text{H}_{11}$ (sirka kislota izoamil efiri, sirka kislota izopentil efiri, sirkaizopentil efiri) – meva hidli rangsiz suyuqlik. Spirit, efir, xloroformlarda aralashadi, suvda qiyin eriydi (0,31 g – 100 g suvda),


$T_{\text{qayn.}} = 142^\circ\text{C}$, $\rho_4^{20} = 0,8720$, $n_d^{20} = 1,4053$; IQ spektrida: $\nu_{\text{S=O}} = 1740 \text{ sm}^{-1}$.

2,4,6-Tribromfenol sintezi.

Reaksiya tenglamasi:



Reaksiya mexanizmi bosqichlari:




Kerakli reaktiv va asboblar: konussimon kolba (250 ml), stakan (100 ml), tomizgich voronkasi, bromli suv (0,8 ml Br_2 + 150 ml suv), 0,47 g fenol.

Ishning bajarilish tartibi: (Ish mo‘rili shkafda bajariladi!)

0,47 g fenolni 25 ml suvda eritib, konussimon kolbaga solib, tomizgich foronka orqali kolbaga 0,8 ml Br_2 + 150 ml suv – dan iborat bromli suv aralashmasi tomiziladi. Tomizish davomida kolba chayqatib turiladi. Bromli suvni tomizish kolbada hosil bo‘layotgan cho‘kmaning rangi o‘zgarmas sariq holga o‘tguncha davom ettiriladi. So‘ngra hosil bo‘lgan cho‘kmani Bunzen kolbasi va Byuxner voronkasi yordamida filtrlab quritiladi va qurigach, og‘irligi aniqlanib, so‘ngra erish temperaturasi maxsus asbobda aniqlanadi. Mahsulot unumi 1,6 g (96%). Suyuqlanish temperaturasi 95-96°C.

Tajriba o‘tkaziladigan asbob 17-rasmida ko‘rsatilgan.


17-rasm. Tajriba o‘tkaziladigan asbob.



Reaksiyon qurilma

Reaksiyon qurilma:

1-Bromli suv solingen tomizgich voronkasi; 2- reaksiyon kolba; 3-suvli idish.




Filtrlash asbobi: 3-Byuxner voronkasi va Bunzen kolbasi; 4-suvda vakuum hosil qilish asbobi.

2,4,6-tribromfenol sariq yaltiroq kristall modda bo‘lib, spirtdan qayta kristallanadi. Molekulyar massasi 331 g/mol.

Nazorat savollari.

1. $C_5H_{12}O$ tarkibli spirtning izomerlari soni nechta?
 2. $C_6H_{14}O$ tarkibli spirtlarning izomerlarini sistematik nomenklatura bo'yicha nomlang.
 3. Quyidagi spirtlarning tuzilish formulalarini yozing:
 - 1) izoamil spirti, 2) allil spirti, 3) 2-metilgeksanol-3, 2,3-dimetilbutanol-2.
 1. Litiyorganik birikma yordamida propil spirtini sintez qiling. Reaksiya tenglamasini yozing.
 2. Quyidagi birikmalar kislotali muhitda suv bilan reaksiyaga kirishganda qanday spirtlar hosil bo'ladi: 1) izobutilen, 2) 2-metilpenten-2,3) propilen, 4) 2-metilbuten-2.
 3. 2-Metilbutanol-1 dan 2-metilbutanol-2 ni sintez qiling.
 4. $C_6H_{14}O$ tarkibli oddiy efirning izomerlarini yozing va sistematik nomenklatura bo'yicha nomlang.
 5. Dietil efirning olinish usullarini yozing.
 6. Quyidagi to'yinmagan spirtlarni sistematik nomenklatura bo'yicha nomlang:
 1. $CH_3-CH=CH-CH_2-CH_2OH$
 2. $CH_3-C(CH_3)=CH-CH_2CH_2OH$
 3. $CH_3-CH=CH-CH(CH_3)-CH_2OH$
 7. Allil spirti, butandiol-1,3, geksantriol-1,3,4 larning tuzilish formulalarini yozing.
 8. Glitserinni nitrolash reaksiyasini yozing va hosil bo'ladigan muddani nomlang.
 9. Glitserin $Cu(OH)_2$ bilan reaksiyaga kirishganda qanday kompleks birikma hosil bo'ladi. Reaksiya tenglamasini yozing.
 10. Etilenglikolning sirka kislotosi bilan sulfat kislota ishtirokida bora-digan reaksiyasini yozing.
 11. n-Toluolsulfokislotadan n-krezol olish reaksiyasini yozing.
- $$\begin{array}{c} CH_3 \\ | \\ H_3C-C-CH-CH_3 \\ | \quad | \\ OH \quad OH \end{array}$$
- ning PCl_3 bilan reaksiya tenglamasini yozing. Dastlabki va hosil bo'ladigan muddani nomlang.

12. 2,4-dixlorfenoldan quyida tuzilishi keltirilgan moddani sintez usullarini yozing:



13. Quyidagi reaksiya mexanizmini tushuntiring:



14. Fenoldan n-bromfenol olish reaksiyasi mexanizmini yozing.
 15. Nima uchun n-bromfenol va n-nitrofenol fenolga nisbatan kuchli kislota hisoblanadi.
 16. Fenoldan siklogeksanol olish reaksiyasi tenglamasini yozing.

9-LABORATORIYA ISHI




ALDEGID VA KETONLAR. KARBON KISLOTALAR VA ULARNING HOSILALARI.

Ishning maqsadi: Uglevodorod molekulasidagi bir yoki bir necha vodorod atomining karbonil, karboksil guruhi bilan almashinuvidan hosil bo'lgan moddalar – uglovodorodlarning hosilalarini – aldegid va ketonlar, karbon kislotalar tajribada olinish usullari, ularning spirtlar va fenolar, ishqorlar, galoid angidridlar, aminlar kabilar bilan kimyoviy reaksiyalari bilan amalda tanishish va ularni fizik-kimyoviy tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Karbonil guruhi va karbon kislotalarga xos reaksiyalar:

1. Aldegidning spirtlarga mis oksidi ta'sirida hosil bo'lishi;
 Mis sim (ingichka) spiral qilib qizdiriladi va cho'g' holatda probirkadan spirt tubiga tushiriladi. Probirka og'zi berkiladi (zich emas). Aldegidning o'ziga xos hidi keladi.


Mis qizargan holatga o'tadi – qaytariladi:




2. Aldegidlarning spirtlarga oksidlovchilar ta'sirida hosil bo'lishi:



Etil spiriti bilan kaliy bixromatning sulfat kislotasi (2n) aralashmasini 1:1nisbatda qo'shib, ehtiyyotkorlik bilan qizdiriladi. Aldegidning o'ziga xos hidi keladi, (3ta probirkaga bo'linadi: A, B, V). So'ngra aldegidlarga xos reaksiyalar qilinadi:





A) $\text{RCHO} + [\text{Ag}(\text{NH}_3)_2^+] \text{OH}^- \rightarrow \text{RCOOH} + 2\text{NH}_3 + \text{Ag} \downarrow$ kumush ko'zgu reaksiya





B) $\text{RCHO} + \text{Cu}(\text{OH})_2 \xrightarrow{\text{qidirish}} \text{Cu}_2\text{O} + \text{Cu}$ qaytariladi (qizil cho'kma)

NaOH (10%li) eritmasidan 1ml olib havo rang cho'kma hosil bo'lguncha CuSO_4 5% eritmada qo'shiladi va qizdiriladi. Sariq rang qizarib mis-ko'zgu hosil bo'ladi.


1) Probirkaga 0,05g KI dan va 5 tomchi I_2 eritmasi solib rang yo'qolguncha NaOH (2n) eritmasi qo'shiladi. Sariq cho'kma hosil bo'ladi. Cho'kma hosil bo'lmasa bir oz qizdiriladi:



2) Asetonning olinishi va xossalari: Sirkal kislotasining natriyli tuzini qizdirish orqali atsetonning olinishi:



Asetonning kimyoviy o'zgarishlarga uchrashi:




KARBONIL BIRIKMALAR VA KARBON KISLOTALAR MAVZUSIGA OID TAJRIBALAR

Fenilbenzoat sintezi (Benzoy kislotasining fenil efiri)

Adabiyot: Васильева А.В. Органический синтез. –М., 1987,
144 с.

Reaksiya tenglamasi:




Kerakli asboblar va reaktivlar

V=100 ml hajmli stakan, V=200 mlli kolba; tomizgich voronkasi; Fenol-4,5 g benzoil xlorid-8,2 ml; NaOH-7,5 g

Ishning bajarilish tartibi; Ish mo‘rili shkafda bajariladi.

Kolbada 7,5 g NaOH ni 70 ml H₂O da eritilib, 4,5 g fenol solib eritiladi. Aralashtirilib turgan holda 8,2 ml benzoil xlorid tomchilab qo‘siladi. Eritmani 20 minut aralashtirib turiladi. Hosil bo‘lgan oq cho‘kma filtrlanadi. Filtrda suv bilan 4 marta yuviladi. Mahsulot unumi-7,5 g. Fenilbenzoatning UB- ul’trabinafscha spektrida o‘ziga hos yutlish chiziqlarni ko‘rish mumkin (18-rasm).

Mahsulotning fizik-kimyoviy konstantalari:




Fenilbenzoat

$$T_{\text{suyuq}}^{\circ} = 70^{\circ}\text{C}$$

$$T_{\text{qaynash}}^{\circ} = 314^{\circ}\text{C}$$

$$D = 1,235 \text{ g/sm}^3$$


$$M_{\text{massa}} = 198 \text{ g/mol}$$



18-rasm. Fenilbenzoatning UB- ul'trabinfsha spektri.

β -Naftilbenzoat sintezi

Reaksiya tenglamasi:




Kerakli asbob va reaktivlar; Stakan ($V=150\text{ml}$); tomizgich voronkasi; β -naftol-1,8g; benzoilxlorid-2ml; NaOH-2,5g.

Ishning bajarilish tartibi:

Stakanda 1,8 - β -naftol 2,5 g NaOH + 25 ml H₂O aralashmasi bilan eritiladi. Aralashmani chayqatib turgan holda tomizgich voronkasi yordamida 2 ml benzoil xloridi qo'shiladi (19-rasm). So'ngra aralashmani ozgina asbest ustida yoki elektr pechkada 10-15 min isitiladi. *Diqqat aralashma qaynab ketmasin!!!* Keyin stakanni sovutiladi. Hosil bo'lgan cho'kmani filtrlanadi va NaOH ning 10%li eritmasi bilan 1

marta, suv bilan 3 marta filtrda yuviladi. Cho'kma quritiladi. Mahsulot unumi-3 g.



19-rasm. Tomizgich voronkasi

A-ishqor uchun; B- benzoil xlorid uchun



Stakan.

Mahsulotning suyuqlanish temperaturasasi $T^0\text{C} = 107-108^0\text{C}$

Molekulyar massasi $M_m=248 \text{ g/mol}$

Benzoy kislotasi sintezi.

Reaksiya tenglamasi:




Asbob va reagentlar; Toluol (5 g) 5,77 ml, KMnO_4 HCl-37% ($p=1.19\text{g/cm}^3$) $V=500 \text{ ml}$ tubi yumaloq issiqbardosh kolba; qumli idish qizdirish uchun; 750 ml xajmli stakan; 250 ml hajmli tubi yassi kolba.

Ishning bajarilish tartibi:


Kolbada toluol (5.75 ml) va 350 ml suvdan 17 g KMnO_4 aralashmasi 4 soat qizdiriladi (20-rasm). Qizdirish eritma rangi yo'qolguncha davom etadi. Issiq holda aralashmani filtrdan o'tkazib

MnO_2 cho'kmasidan ajratiladi. Filtratni parchalantirib 60 ml hajm qolganda yana cho'kmaga tushadi. Cho'kmaga tushgan benzoy kislotani muzdek holda filtrlab quritiladi. Unumi 5 g (75%).

20-rasm. Asbobning chizmasi:



- 1- qumli idish;
- 2- issiqbardosh kolba;
- 3- Libix sovitgichi.



yoki


C_6H_5COOH

$M_m = 122 \text{ g/mol}$; $t^0_{\text{suyuk}} = 122^\circ\text{C}$,
 $\rho^{15}_4 = 1,2659 \text{ g/cm}^3$

Suvda qaynatib eritilgach, qayta kristallga tushadi. Kristallar oppoq, yaltiroq plastinkasimon shaklga ega.

Shavel kislotasi sintezi.

Reaksiya tenglamasi:



Asbob va reaktivlar: Shakar-5 g, HNO_3 ($P=138 \text{ r/cm}^3$) 40 g (29 ml), tubi yassi kolba (200 ml) 3 dona; chinni chashka; suvli hammom.


Ish mo'rili shkafda bajariladi!

Ishning bajarilish tartibi:

Kolbada 5 g mayda (kukun) shakarni 29 ml HNO_3 bilan aralashmani qizdiriladi (21-rasm). Azot oksidi (NO) qo'ng'ir rangdagi gaz chiqishi boshlanishi bilan qizdirish to'xtatiladi. Oksid-

lanish reaksiyasi bir necha vaqt davom etgani uchun kolba mo‘rili shkafda 5-10 minut ushlab turiladi.

21-rasm Asbobning chizmasi:




Mahsulot unumi 2 g (25%-nazariy hisobga asosan). NO-gazi chiqishi to‘xtamagach, aralashmani farfor chashkaga solib bug‘latiladi va 40 ml hajmdagi aralashma qolgach, muzlatiladi. Hosil bo‘lgan shavel kislotasi oq cho‘kmasi filtrlanadi va suv bilan qayta kristallananadi.

Shavel kislotasi- rangsiz kristall modda bo‘lib, kristallogidratning suyuqlanish $t_{suyuq}^0 = 101^0\text{C}$. Suvsiz shavel kislotasi esa $189,5^0\text{C}$ da parchalanish bilan aniqlanadi. Suv va spirtda eriydi.

Aspirin sintezi. (Asetilsalisil kislotasi).

Reaksiya tenglamasi:




Reaktivlar: Saltsil kislotasi – 1,3 g (0,01 mol); sirka angidrid – 1,1 ml (0,01 mol)


Sintezning bajarilish tartibi:

Kattaroq stakanda 1,3 g salitsil kislotani 1,2 g sirka angidridda bir oz qizdirib eritiladi va unga bir tomchi konsentrangan sulfat kislotasi tomiziladi (22-rasm). Reaksiyon aralashma 1 soat suv hammomida 60°S da qizdiriladi. So‘ngra reaksiyon aralashma aralashtirilib turilgan holda sovitilib, reaksiya mahsuloti – aspirin kristallari Shotta voronksida filtrlanib, oldin muzli, so‘ng ozgina sovuq toluol bilan yuviladi. Aspirinning rangsiz ignasimon kristallari 135°C da suyuqlanadi. Mahsulot unumi 2 g.

22-rasm. Tajriba o‘tkaziladigan asbobning chizmasi:



1




2




1- Stakanni qizdirish qoidasi; 2- Shotta voronkasi va mikrootsos. Mahsulot benzol yoki xloroformdan qayta kristallantiriladi.

Nazorat savollari.

1. $\text{C}_5\text{H}_{10}\text{O}_2$ tarkibli kislotaning izomerlarini yozing. Ularni ratsional va xalqaro nomenklatura bo‘yicha nomlang.
2. Quyidagi kislotalarni xalqaro nomenklatura bo‘yicha nomlang.
 - 1) $\text{CH}_3(\text{CH}_2)_3\text{-COOH}$
 - 2) $(\text{CH}_3)_3\text{CCH}_2\text{CH}_2\text{-COOH}$
 - 3) $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{-COOH}$
 - 4) $(\text{CH}_3)_3\text{C-COOH}$
3. Quyidagi o‘zgarishlarni amalga oshiring:







4. Quyidagi kislotalarni kislotalilik kuchi oshishi tartibida joylashtir-
ing:



5. Propion kislotaning 1 mol xlor bilan reaksiya tenglamasini yozing.
 α -holatdagi vodorodning nima uchun faol bo‘lishini tushuntiring.
6. Reaksiya natijasida butan kislota hosil bo‘lsa, reaksiya uchun qaysi magniyorganik birikma olinganini va reaksiya tenglamasini yozing.
7. $\text{C}_4\text{H}_8\text{O}_2$ tarkibli murakkab efirlarning izomerlarini yozing va nomlang.
8. Metilatsetat, metilformiat va butilatsetatlarning tuzilish formulalari-
ni yozing.
9. Propion kislotaning metil efirini oling. Reaksiya mexanizmini yoz-
ing.
10. Metilpropionatning kislotali muhitdagi gidroliz reaksiyasi tengla-
masini va mexanizmini yozing.
11. Qaysi xlorangidridga ammiak ta’sir ettirilsa butiramid hosil
bo‘ladi.
12. Tripal’mitinni gidroliz qiling va unga soda (Na_2CO_3) ta’sir ettiring.
Qanday sovun hosil bo‘ladi?
13. $\text{C}_4\text{H}_6\text{O}_2$ tarkibli to‘yinmagan kislotaning izomerlarini yozing va
xalqaro nomenklatura bo‘yicha nomlang.
14. Molekulasida uch bog‘ tutgan $\text{C}_3\text{H}_6\text{O}_2$ tarkibli kislotaning izomer-
lari nechta?
15. Akril kislotaning a) vodorod bromid; b) fosfor(V)-xlorid bilan
reaksiyalarini yozing.
16. Propen kislotasi KMnO_4 ning suvli eritmasi bilan oksidlansa qan-
day modda hosil bo‘ladi?
17. $\text{C}_5\text{H}_8\text{O}_4$ tarkibli ikki asosli kislotaning izomerlarini yozing va xal-
qaro nomenklatura bo‘yicha nomlang.

18. Nima uchun ikki asosli kislotalar bir asosli kislotalarga nisbatan kuchli hisoblanadi?
19. Malon kislotasi qizdirilsa qanday modda hosil bo‘ladi?
20. Malon va qahrabo kislotalarni bir-biridan qaysi reaksiya orqali farqlash mumkin?
21. 3-Xlorbutan kislota natriy gidroksidning spirtli eritmasi bilan qizdirilsa qaysi to‘yinmagan kislota hosil bo‘ladi?
22. Oksolat kislotaning olinish usullarini yozing.
23. Tarkibi $C_8H_8O_2$ bo‘lgan monokarbon va tarkibi $C_8H_8O_4$ bo‘lgan dikarbon kislotalar izomerlarini formulalarini yozing va ularni nomlang.
24. Quyidagi birikmalarni nomlang:



25. Quyida nomlari keltirilgan kislota hosilalarining tuzilish formulalarini yozing:
- a) benzoil xlorid; b) fenilsirka kislota nitrili; v) n-nitrobenzoy kislotaning etil efiri; g) o-xlorbenzoy kislota angidridi; d) n-metoksibenzoy kislota amidi.
26. Quyida nomi keltirilgan kislotalarning etil efirini hosil qilish reaksiya tenglamalarini yozing.
- a) n-nitrobenzoy kislota; b) o-xlorbenzoy kislota; v) n-metoksibenzoy kislota; g) 2,6-diftorbenzoy kislota.
27. Benzoy kislota misolida aromatik kislotalarning kimyoviy xossalari tushuntiring.

10-LABORATORIYA ISHI


AMINOBIRIKMALAR, NITRO- VA SULFO-BIRIKMALARNING OLINISHI VA KIMYOVİY HOSSALARI.

Ishning maqsadi: Uglevodorod molekulasidagi bir yoki bir necha vodorod atomining amino, nitro va sulfo guruhi bilan almashinuvidan hosil bo‘lgan moddalar – uglevodorodlarning hosilalarini – aminobirikmalar, nitro- va sulfo-birikmalarning tajribada olinish usullari, ularning spirtlar va fenolar, ishqorlar, galoid angidridlar, ishqorlar kabilar bilan kimyoviy reaksiyalari bilan amalda tanishish va ularni fizik-kimyoviy tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

SULFON KISLOTALAR

Oltingugurt organik birikmalar deb, C-S bog‘iga ega bo‘lgan organik moddalarga aytildi.

Sulfon kislotalar va ularning hosilalari quyidagi umumiy tuzilish formulasiga egadirlar:



Sulfon kislotalarni va sulfonlarni sulfat kislota hosilalari deb qarash mumkin. Kislota molekulasidagi bir yoki ikkala OH guruhi uglevodorod qoldig‘i bilan almashingandir. Sulfon kislotalar hosilalariga: efirlar, amidlar, xlorangidridlar kiradi.


Bu birikmalarning nomlanishi uchun uglevodorod va oltingugurt tarkibli funktional guruhlar nomlari asos bo‘ladi.

IYUPAK nomenklurasiga asosan sulfon kislotasi - qo‘srimchasi qo‘silib nomlanadi. Shuningdek sulfokislota so‘zi ham ishlatalidi:

$\text{CH}_3\text{SO}_3\text{H}$	$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{SO}_3\text{H}$
metansulfokislotasi	etansulfokislotasi
$\text{CH}_3\text{SO}_3\text{Na}$	$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{SO}_3\text{Na}$
metansulfokislotasining	etansulfokislatasini

natriyli tuzi		natriyli tuzi	
Benzolsulfonat		1,3-disulfobenzol	
benzolsulfokislotosi		etansulfoxlorid	
orta-sulfanilkislotosi natriyli tuzi		orta-nitrosulfokislotosi natriyli tuzi	
orta-sulfanil kislotosi		orta-nitrosulfokislotosi	
izopropan sulfokislotosi		CH ₃ SO ₂ Cl	
izopropan sulfokislotosi		metansulfoxlorid	
natriyli tuzi		CH ₃ CH ₂ SO ₂ NH ₂	
1,3,5-benzoltrisulfokislotosi		etansulfamid	
		CH ₃ SO ₂ NH ₂	
		metansulfamid	
		para-sulfanil kislotosi natriyli tuzi	

para-toluolsulfokislotasi



para- nitrosulfokislotasi
natriyli tuzi



para- nitrosulfokislotasi

para-sulfanil kislotasi



propansulfokislotasi




propansulfokislotasi
natriyli tuzi

Sulfon kislotalarning olinish usullari

1. Alkansulfokislotalar va aromatik sulfokislotalarni olish usullari farq qiladi.




Alkanlar va tsikloalkanlarni sulfolash reaksiyalarining deyarli barchasi erkin radikal mexanizmda ketadi.

a) Sulfoxlorlash reaksiyasi. Bu reaksiya UB-nur ta'sirida SO_2 va Cl_2 gazlari ishtirokida ketib, UB-nur ta'sirida erkin xlor va alkil- radikallari hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan alkil radikali esa SO_2 bilan ta'sirlashadi:




Alkansulfokislotalarning xlorangidridlari yuvish vositalari ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

b) Alkanlarning sulfooksidlanish reaksiyasi: UB-nur ta'sirida alkanlar SO_2 bilan O_2 ishtirokida ta'sirlashadi. Reaksiyani amalgalosishish uchun uzluksiz nur berib turish kerak. Natijada alkanlardan erkin radikallar hosil bo'lib, SO_2 va O_2 bilan ta'sirlashib, alkansulfon kislotalar hosil bo'ladi:




alkanperoksisulfon kislotasi

Alkanperoksisulfon kislotalar osongina parchalanib yangi erkin radikallarni hosil qiladi:



alkansulfokislotalar

v) Arensulfokislotalar aromatik birikmalarni osonlik bilan konentrangan sulfo kislotasi yoki oleum bilan sulfatlash usulida olinadi:



Benzol qiyin sulfolanadi, toluol, ksilol va benzolning boshqa gomologlari oson sulfolanadi. Sulfolash reaksiyasi elektrofil almashinish reaksiyasi mexanizmida ketadi:




NITROBIRIKMALAR

Nitrobirikmalar – organik birikmalarning tarkibidagi vodorod atomining nitroguruh $-NO_2$ ga almashinishi natijasida hosil bo‘ladigan va $C_nH_{2n+1}NO_2$ – umumiyl formulaga ($R-NO_2$) ega bo‘lgan moddalardir.

Ularning tuzilish formulasida azot bevosita uglerod atomiga birikkani ni ko‘rish mumkin:



Masalan, nitrometan:




Nitrobirikmalar sinflari

Nitrobirikmalar sinflanishida uglevodorodlarning turi, uglerod atomining gibridlangan holati va nitroguruhining molekuladagi soni asosiy ahamiyatga ega. Ular asosan uch turga bo‘linadi:

1. Nitroalkanlar va nitrosikloalkanlar [$\text{C}(\text{Sp}^3)-\text{NO}_2$ -bog‘li birikmalar]:



2. Nitroalkenlar [$\text{C}(\text{Sp}^2)-\text{NO}_2$ -bog‘ga ega bo‘lgan birikmalar]:



3. Nitroarenlar [$\text{C}(\text{Sp}^2)-\text{NO}_2$ -bog‘ga ega bo‘lgan birikmalar]: $\text{ArNO}_2; \text{C}_6\text{H}_{6-m}(\text{NO}_2)_m$.

Shuningdek, nitroalkanollar, galogennitrobirikmalar, nitrofenollar – nitrobirikmalar hosilalaridir.


Nomlanishi va izomerlanishi

Metil guruhining o‘rnida etil, propil, izopropil, uchlamchi-butil va h.k. guruhlar bo‘lganda mos ravishda nitroetan, 1-nitropropan, 2-nitropropan va 2-metil-2-nitropropanlar hosil bo‘ladi. Bu nitrobirikmalar birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi nitrobirikmalarga misol bo‘ladi.


Nitrobirikmalarni nomlashda tegishli uglevodorod nomining oldiga -nitro qo‘sishchasi qo’shib aytildi. Agar zanjirda nitroguruhdan katta funksional guruhlar (-OH, -NH₂, -SO₃H, -CHO, -COOH) bo‘lmasa uglerod atomlariga raqam qo‘yish nomerlash nitroguruh yaqin tomondan amalga oshiriladi. Yon zanjirdagi galoid atomlari, alkil guruhlar, nitroguruh alfavit tartibida yoziladi. Bunda alfavit tartibi-

da birinchi keluvchi guruh turgan uglerod atomiga kichik nomer beriladi.


Masalan:





2-metyl-3-nitrobutan





2-metyl-1-nitro-1-xlorpropan





4-nitropentanol-1





uchlamchi -nitrobutan



2-nitrobutan




pikrin kislotasi



pikramid

Nitroalkanlar asosan ikkita usul bilan olinadi:


1. Alkanlarni nitrolash. Reaksiya yuqori temperaturada suyuq yoki gaz fazasida suyultirilgan nitrat kislotasi yoki azot oksidi ishtirokida olib boriladi. Alkanlarni nitrolash reaksiyasini Konovalov M.I. (1899 y) usuli: to‘yingan uglevodorodlarga yuqori haroratda ($140\text{--}150^{\circ}\text{C}$) suyultirilgan (10-20%) nitrat kislotani kavsharlangan ampulada ta’sir ettirish usuli;



Qo‘sishimcha mahsulot sifatida ketonlar va karbon kislotalar hosil bo‘ladi.


Bu reaksiyada uchlamchi uglerod atomidagi vodorodlar eng oson, birlamchi uglerod atomidagi vodorodlar esa eng qiyin almashinadi. Reaksiya radikal mexanizmida boradi.

Konovalov reaksiyasining mexanizmini A.V. Topchiev va A.N. Titovlar o‘rganib, quyidagi sxemani taklif qilganlar:



Qo‘sishimcha mahsulot sifatida karbon kislotalari hosil bo‘ladi.

Alkanlarni gaz fazasida nitrat kislotasi yoki azot oksidlari yordamida $420\text{--}480^{\circ}\text{C}$ da nitrolanganda nitrobirkimlar aralashmasi hosil bo‘ladi (X. Gess, 1930 y). Reaksiya juda qisqa muddatda olib boriladi. Metandan CH_3NO_2 hosil bo‘ladi. Etan va propandan esa nitroalkanlarning aralashmasi ($\text{C}-\text{C}$ bog‘ uziladi) hosil bo‘ladi. Reaksiya erkin radikal mexanizmda ketadi. Radikallar termik parchalanishda hosil bo‘ladi. Uning sxemasi va mexanizmini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:



bu yerda faol radikal nitrit $[\text{O}_2\text{NO}^\bullet]$ radikalidir

2. Galoidalkillarga nitrit kislota tuzlarining (AgNO_2 , NaNO_2 , KNO_2) ta'siri. V. Meyer (1872y) galoidalkanlarni kumush nitrit bilan alkilash reaksiyasini natijasida aralash mahsulotni: nitroalkanlar va alkilnitritlar sintez qilgan:



Bu usulda bipolyar (qo'shqutqli), aproton erituvchilar (masalan: dimetilformamid $(\text{CH}_3)_2\text{N-CHO}$; dimetilsulfoksid $(\text{CH}_3)_2\text{S=O}$) ishlatsila ionlar kuchli solvatlanadi va nitrit- ion faollashadi. Natijada yuqori unumlar bilan asosan nitroalkanlar hosil bo'ladi:




Alkilnitritlar (nitrit kislotasining efirlari) ko'proq uchlamchi galoidalkillar reaksiyasida hosil bo'ladi.

Bu reaksiyaning mexanizmi nukleofil almashinishdir




Mexanizmi:



Bu reaksiyada nukleofil Kornblyum qoidasiga muvofiq elektron zichligi yuqori bo'lgan kislorod atomi bilan reaksiyaga kirishadi.


Birlamchi galoidbirikmalar $\text{S}_{\text{N}}2$ mexanizmi bo'yicha reaksiyaga kirishib, nitroalkanlar hosil qiladi. Bunda nukleofil qutblanuvchanligi katta bo'lgan azot atomi bilan reaksiyaga kirishadi:




Benzol qatori nitrobirimkmalari. Aromatik uglevodorodlarni nitrolash uchun nitrat va sulfat kislotalarning 1:2 nisbatdagi aralashmasidan foydalaniladi (nitrolovchi aralashma):




Hosil bo'lgan nitroniy kationi aromatik birikmaga hujum qiladi:



Agar toluolga yuqori haroratda ($100-150^\circ\text{C}$) suyultirilgan nitrat kislota ta'sir qilinsa, yon zanjirga nitrolash ketadi:



Agar benzolning yon zanjirida uzun radikal bo'lsa, uning α -holati nitrolanadi:



AMINOBIRIKMALAR

Uglevodoroddagi vodorod atomi aminoguruhga almashinishidan hosil bo‘lgan organik moddalar – aminobirikmalar deyiladi. Gohida bu moddalar ammiakning hosilalari deb qaraladi. Chunki NH_3 molekulasidagi H-atomining bir yoki bir nechtasi alkil (aril) radikaliga almashinishidan tuzilishiga ko‘ra ular birlamchi RNH_2 , ikkilamchi R-NH-R va uchlamchi $\text{R}^1\text{N}(\text{R}^2)\text{R}^3$ aminlar hosil bo‘ladi.



NH_3 ; R-NH_2 ($\text{R} \approx \text{CH}_3-$; C_2H_5- ; C_6H_5- va xokazo); $(\text{CH}_3)_2\text{NH}$; $(\text{CH}_3)_3\text{N}$; Mos ravishda bularning tuzlari hosil bo‘ladi:

$[\text{R-NH}_3^+] \cdot \text{X}^-$ monoalmashingan ammoniy galogenid tuzi; $[(\text{R})_2\text{NH}_2^+] \cdot \text{X}^-$ dialmashingan ammoniy galogenid tuzi; $[(\text{R})_3\text{NH}^+] \cdot \text{X}^-$ trialmashingan ammoniy galogenid tuzi; $[(\text{R})_4\text{N}^+] \cdot \text{X}^-$ tetraalmashingan ammoniy galogenid tuzi.

Uglevodorod zanjirida aminoguruh soniga qarab monoalkilaminlar, dialkilaminlar va hokazolar mavjuddir.


Uglerod atomining gibridlangan holatiga qarab aminlar uch xil guruhga bo‘linadi:

I. $\text{C}(\text{Sp}^3)\text{-N}$ -bog‘iga ega birikmalar: alkilaminlar; sikloalkilaminlar; ba’zi alkenilaminlar; alkinilaminlar bo‘lib, qo‘shbog‘ va uchbog‘lar azot atomidan holi bo‘ladi, shuningdek arilalkilaminlar:




bu yerda: $\text{R}=\text{H}$ yoki alkil; $\text{R}^1=\text{H}$, alkil, aril.

II. $\text{C}(\text{Sp}^2)\text{-N}$ -bog‘iga ega bo‘lgan aminlarga – alkenlardagi uglerod atomida azot atomi bo‘lib, enaminlar yoki vinilaminlar, arilaminlar misol bo‘ladi:




III. C(Sp)-N -bog‘iga ega bo‘lgan aminlar. Tarkibida $C\equiv C$ bog‘i bo‘lgan alkinaminlar – inaminlardir: $R^2-C\equiv C-N(R)_2$, shuningdek, aminobirikmalarning hosilalari: aminoalkanollar, aminofenollar, aminosulfon kislotalar, aminonitrobirikmalar.

Formuladagi R^1 , R^2 yoki R^3 lar metil, etil, propil va h.k yoki to‘yinmagan uglevodorod qoldig‘i-allil- bo‘lishi mumkin. $CH_2=CH-CH_2-NH_2$ allilamin. Azot bevosita qo‘sh bog‘ tutgan uglerod atomiga birikkan birlamchi yoki ikkilamchi aminobirikmalar beqaror birikmalardir. Ular azometinlarga (iminlarga) izomerlanadilar. M-n: $CH_2=CH-NH_2$ vinilamin. Bu modda erkin holda yo‘q, chunki u tezda sirkal degidning iminiga aylanib ketadi:




Ammo bunday uglevodorod qoldig‘i tutgan uchlamchi aminlar barqrordir. M-n:




Chunki, bu molekuladagi azot atomida ko‘chishi mumkin bo‘lgan vodorod yo‘q.

Aminobirikmkalarning nomlanishi

Ratsional nomenklaturada aminlar uglevodorod qoldig‘i asosida nomlanadi. M-n: CH_3NH_2 metilamin, $CH_3NHC_2H_5$ metiletilamin, $N(CH_3)_3$ trimetilamin, $N(CH_2CH_3)_3$ trietylamin, $CH_3CH_2CH_2CH(NH_2)-CH_2CH_3$ geksanamin (ikkilamchi geksilamin) va h.k. Sistemmatik nomenklaturada uglevodorod nomiga amino- so‘zini qo‘shib nomlanadi, raqam bilan esa aminoguruuning o‘rni ko‘rsatiladi:



2-aminobutan











1,2-diaminoetan

-NH_2 amino, -NH-CH_3 metilamino va $\text{-N(CH}_3\text{)}_2$ dimetilamino guruhlardir.

Aromatik yadrosining vodorod atomi o‘rnida NH_2 guruhi tutgan birikmalar aromatik aminlar deb ataladi.

Quyida ba’zi aminlarning nomlari keltirilgan.

CH_3NH_2	$\text{CH}_3\text{N}(\text{CH}_3)_2$	$[(\text{CH}_3)_4\text{N}]^+\text{Cl}^-$
metilamin	trimetilamin	tetrametil ammoniy xlorid
$\text{C}_2\text{H}_5\text{NH}_2$	$\text{H}_2\text{NCH}_2\text{NH}_2$	CH_3NHCH_3
etilamin	metilendiamin	dimetilamin
$\text{C}_3\text{H}_7\text{NH}_2$	diaminometan	
propilamin	$\text{H}_2\text{NCH}_2\text{CH}_2\text{NH}_2$	
$\begin{array}{c} \text{CH}_2\text{CHCH}_2\text{OH} \\ \\ \text{NH}_2 \end{array}$	1,2-diaminoetan	$\begin{array}{c} \text{CH}_2\text{CH}_2\text{OH} \\ \\ \text{NH}_2 \end{array}$
	etilendiamin	
2-aminopropil spirti	$\text{H}_2\text{N}(\text{CH}_2)_6\text{NH}_2$	etanolamin
propanolamin	1,6-diaminogeksan	
		
para-aminofenol	para-sulfanil kislotasi	atsetanilid
		
$\text{N},\text{N}'\text{-dimetilanilin}$	anilin	ortho-aminotoluol
dimetilfenilamin		




Aminobirikmalarning olinish usullari



Aminobirikmalarni va ularning hosilalarini olish uchun ammiakni va aminlarni alkillash, azotli birikmalarni qaytarish va boshqa mahsus usullardan foydalananildi

Aminlar quyidagi usullar bilan olinadi:

1. Ammiakni va aminlarni galoidalkillar yoki spirtlar bilan alkillash usuli; 1850 yilda nemis organik kimyogar olimi Avgust Vilgelm Gofman sintetik bo‘yoqlar olishda ko‘p izlanishlar olib borgan bo‘lib, u ammiak bilan galogenalkanlar va boshqa alkillovchi reagentlarning (alkilsulfat kislotasi, dialkilsulfatlar) reaksiyasi natijasida aminlar yoki ammoniy tuzlarini olgan:




Alkillash uchun spirtlar ham ishlataladi. Bunda esa Al_2O_3 katalizatori (300^0C) ishlataladi:




2. Qaytarilish reaksiyalari asosida aminobirikmalarni olish. Taribida N-azot bo‘lgan ($\text{C}-\text{N}$; $\text{N}-\text{O}$; $\text{N}=\text{O}$; $\text{N}=\text{N}$; $\text{N}\equiv\text{N}$; $-\text{C}\equiv\text{N}$; $\text{N}\equiv\text{C}$) birikmalarni vodorod bilan (Ni -asetatga vodorod yuttirilgan katalizator)


palladiy katalizatori ishtirokida qaytarib aminlar olinadi. Nitrillar, nitrobirikmalar va oksimlarni qaytarish:




Gofman Avgust Vilgelm (1881 y) qayta guruhlanishi yordamida olish. Ishqoriy muhitda kislota amidlarini galogenlar ishtirokida parchalash reaksiyasi natijasida aminlar olish mumkin:



Aromatik aminlarni olishni bиринчи bo'lib rus kimyogari N.N. Zinin (1842 y) taklif etgan. U nitrobenzolni vodorod sulfid bilan qaytarib anilin olgan:




Gofman usulida aromatik kislotalar amidlaridan olish:



Asetamid sintezi

Adabiyot: Васильева А.В. Органический синтез. –М., В.ИИ.
1987, 149 с.

Reaksiya tenglamasi:



Reaktivlar: Etilasetat 4,87 ml, ammiak (25%-li eritmasi) 50 ml.

Asboblar: sklyanka ($V=100\text{-}150$ ml), muzli vanna, tubi yumaloq kolba (Vyurs-kolbasi), suvli sovitgich, H_2SO_4 - bo'lgan eksikator.


Ishning bajalishi tartibi: (Ish mo'rili shkafda bajariladi!).

Qalin devorli hajmi 100-150 ml bo'lgan sklyankaga 4,87 ml etilasetat va 9 ml (25%-li) ammiakning suvli eritmasi solinadi. Sklyankani muzli idishga joylanadi. Sovigan reaksiyon aralashmaga ammiak bug'lari yuborilib, to'yintiriladi. Ammiak bug'larini esa tubi yumaloq kolbada qolgan 31 ml ammiak eritmasini qizdirish orqali olinadi. Tubi yumaloq kolbaga suvli sovitgich o'rnatiladi. Reaksiyon aralashma gomogen bo'lguncha ammiak bug'lari bilan to'yintiriladi. So'ngra sklyankani og'zini probka bilan yopib, 2 kun qoldiriladi. Keyin sklyankadagi aralashma Vyurs kolbasiga solinib, suvli sovitgichda 130°C gacha, keyin qisqa havo sovitgichi ulab haydaladi. Asosan temperatura $210\text{-}216^{\circ}\text{C}$ oralig'idagi chiqadigan modda alohida suvda sovitilib turiladigan tubi yassi bo'lgan kolbada ajratib olinadi. Bu kolbadagi moddani bir oz eritib, quruq bo'lgan chiimi kosachaga solib H_2SO_4 bo'lgan eksikatorda quritiladi. Mahsulot unumi 2,3 g (76%).


Asetanilid sintezi.

Adabiyot: Гитис С.С. Практикум по органической химии – М.; В.И., 1989. С.169.

Reaksiya tenglamasi:




Reaksiya mexanizmi:




Kerakli asbob va reaktivlar: Tubi yumaloq kolba (250 ml), qaytarma sovitgich, suv hammomi, filrlash moslamasi; anilin-4,4 g (4,5 ml), sirka angidrid - 6,5 g (6,0 ml).

Ishning bajarilish tartibi: (Ish mo‘rili shkafda bajariladi!).

Kolbada 4,5 ml anilinni 20 ml suv bilan aralashtirib 6 ml sirka angidridi qo‘shiladi. Kolbaga havo sovitgichi ulab, 70-80°C da suv hammomida aralashtirib turgan holda qizdiriladi. Kolbadagi massa suyuq holga o’tgach kolba sovitiladi. Hosil bo‘lgan cho‘kma filrlanadi va quritiladi. Unumi 5,5 g (69% nazariy bo‘yicha).



23-rasm. Asetanilid sintez qilish asbobi: 1-sirka angidridi solingan tomizgich voronkasi; 2- reaksiyon kolba; 3- suv hammomi.



Vakuumda filtrlash asbobi: 1- cho'kma; 2-filtr qog'oz; 3-chinnidan yasalgan g'ovakli plastinka; 4 - Byuxner voronkasi; 5 - filtrat


$T_{\text{suyuqlanish}} = 114^{\circ}\text{C}$. Suv yoki etanoldan qayta kristallantiriladi.

Tajriba olib boriladigan asbognig yig'ilgan chizmasi 23-rasmda keltirilgan.



2,4,6-Tribromanilin sintezi.

Adabiyot: Гитис С.С. Практикум по органической химии – М.; В.И., 1989. С.140.

Reaksiya tenglamasi:



Reaksiya mexanizmi:





Kerakli asbob va reaktivlar: Konussimon kolba yoki stakan (250 ml), tomizgich voronkasi.; anilin (toza haydalgan) 2,55 g (2,5 ml), brom – 15 g (4,8 ml), KBr – 9 g, HCl ($d=1,19 \text{ g/sm}^3$) - 2 ml.

Ishning bajarilish tartibi: (Ish mo‘rili shkafda bajariladi!).

Tagi tekis 250 ml sig‘imi kolbada 2,5 ml anilinni 75 ml suv bilan va 2,5 ml konsentrangan HCl bilan aralashdiriladi. Aralashmaga 50 ml H_2O 9 g KBr va 4,8 ml bromning aralashmasi oz-ozdan 30 minut ichida tomiziladi (24-rasm). Reaksiyani xona temperurasida olib borildi. Reaksiya bromning rangi yo‘qolib cho‘kma hosil bo‘lguncha davom ettiriladi. Unumi – 7g (77% nazariy).

$T_{\text{suyuqlanish}}^0 = 119\text{--}120^\circ\text{C}$ (issiq etanoldan qayta kristallantiriladi).

24-rasm. Tajriba o‘tkaziladigan asbobning yig‘ilgan chizmasi




1-Byuxner voronkasi;
2- Bunzen kolbasi.

Tomizgich voronkasi bilan kaliy brom va brom aralashmasini tomi-zish



Nitrobenzol sintezi.

Adabiyot: Гитис С.С. Практикум по органической химии – М.; В.И., 1989. С.108.


Umumiy reaksiyasi sxemasi;



Reaksiya mexanizmi: Nitrolovchi reagentning hosil bo‘lishi:



Qo‘shimcha reaksiyaar:




Kerakli asboblar va reagentlar;

Benzol -10 ml;konsentrangan ($d=1.4\text{g/cm}^3$) HNO_3 va ($d=1.84\text{g/sm}^3$) H_2SO_4 ; 5% NaOH, Suvli xamom, termometr, voronka, havo sovitgich, tubi yumaloq kolba.

Tajribani bajarilish tartibi:


Qaytarma sovitgichli va tomizgich voronkasi o‘rnatilgan kolbaga 11 ml HNO_3 quyiladi, ustidan H_2SO_4 13 ml kislotani idishni sovitib turgan holda oz-ozdan quyiladi. Keyin kolba xona temperaturasigacha sovigach benzolni 1 ml dan aralashtirib turgan holda qo‘shiladi. Kolba qaytarma havo sovitgichi ulanib, rasmdagi asbobga yig‘iladi (25-rasm). Aralashmani 60°C -da 30-35 min qizdiriladi va reaksiya davomida vaqtiga –vaqt bilan kolbani chayqatib turiladi.

25-rasm. Tajriba o‘tkaziladigan asbobning yig‘ilgan chizmasi



1- nitrobenzol sintez qilish asbobi; 2-ajratgich voronkasi.

Reaksiya tugagach, kolbadagi suyuqlik aralashmasini sovutib, ajratgich voronkasiga (6) quyiladi.




26-rasm. Nitrobenzol fraksiyasini ajratib olishga mo‘ljallangan haydash asbobi:

1- termometr; 2 - termometr; 3 - Libix sovitgichi; 4 - allonj; 5 - distillyat; 6 - fraksiyalarga ajratib hadash uchun deflegmator; 7 - haydash kolbasi.


Ajratgich voronkasidagi yuqori qism – nitrobenzoldan quyi qismi ajratib tashlanadi. Yuqori nitrobenzol qismini 5% NaOH eritma bilan 2 marta va suv bilan 1 marta yuviladi. Keyin ekstrakt quruq va toza idishga quyib olinib, CaCl_2 - bilan quritiladi. Qurigach, Vyurs kolbasida haydab, $207\text{-}211^\circ\text{C}$ qaynar fraksiya ajratib olinadi (26-rasm). Unum 11 g (81%-nazariy) $\text{C}_6\text{H}_5\text{NO}_2$ -nitrobenzol – achchiq bodom hidi keladi. Molekulyar massasi: $M_m=123$; qaynash temperaturasi: $T_{\text{qayn}}^0=210^\circ\text{C}$; zichligi: $d_n^{25}=1,1986$, nurni sindirish ko'rsatkichi: $n_d^{20}=1,5524$

Para-Nitroasetanilid sintezi (1-usul).

Asosiy reaksiya tenglamasi:



Qo'shimcha reaksiya:




Kerakli asbob va reaktivlar: asetanilid-6,8 g, H_2SO_4 – 17,5 ml ($d=1,835 \text{ g/cm}^3$); HNO_3 – 4,0 ml ($d=1,46 \text{ g/cm}^3$), potash K_2CO_3 – 10% li eritmasi, filtr qog'oz, suv nasosli filtrlash asbobi, stakan, tomizgich voronkasi.

Tajribani bajarish tartibi:

Stakanda 15 ml H_2SO_4 ga maydalangan 6,8 g atsetanilidni solib aralashtirib eritiladi. Aralashma suv tagida sovitilib, 2,5 ml H_2SO_4 va 4,0 ml HNO_3 aralashmasi (nitrolovchi agent) 0,5 soat davomida tomchilatib qo'shiladi. Temperatura oshib ketmasligi uchun idishni suvda sovutib turish kerak. So'ngra aralashmani sovuq suvgaga quyib, 20 mi-

nutdan keyin hosil bo‘lgan cho‘kma filtrlanadi. Cho‘kmani kolbaga solib potash eritmasi bilan reaksiya vaqtida hosil bo‘lgan mahsulot gidrolizga uchratiladi. Kolbadagi eritma sovitilgach, hosil bo‘lgan cho‘kma filtrlanadi va filtrning o‘zida 3 marta toza suv bilan yuviladi. Mahsulot unumi 7 g

para-nitroasetanilid




Molekulyar massasi

$M_m = 180,16$,
suyuqlanish temperaturasi
 $T_{suyuq}^0 = 207^0\text{C}$


para-Nitroasetanilid sintezi (2-usul).

Adabiyot: Практикум по органической химии. Под ред. Гинзбурга О.Ф. –М.; ВШ, 1989. С. 234.

Asosiy reaksiya tenglamasi:



Qo‘shimcha reaksiya:




Reaktivlar: acetanilid 1 g (0,007 mol), sirkə kislotası (muzli) 1 g (1 ml), sulfat kislotası 2 ml ($d = 1,84 \text{ g/sm}^3$), nitrat kislotası 0,4 ml ($d = 1,5 \text{ g/sm}^3$)

Jihozlar: stakan ($v=50-150 \text{ ml}$), termometr, mikrootrosos.


Tajribaning bajarilish tartibi:

Stakanga 1 ml muz sirka kislotasi solinib, 1 g maydalangan asetanilid qo'shiladi va chayqatiladi (27-rasm). Keyin shu aralashmaga 2 ml H_2SO_4 qo'shiladi. Isib ketsa, suv tagida sovitiladi. So'ngra aralashmaga tomchilatib HNO_3 0,4 ml qo'shiladi. Bunda reaksiyon aralashmaning temperaturasi $20^{\circ}C$ dan oshmasligi kerak! Nitrat kislotasi qo'shib bo'lingach, aralashmani 20 minut qoldiriladi. So'ngra aralashmaga muz bo'lagi va sovuq suv qo'shiladi. Bunda para-nitroasetanilid cho'kmaga tushadi.

27-rasm. Tajriba o'tkazish asbobi.



Stakan




Mikro-vakuumda filtrlash asbobi. Shota voronkasi va jo'mrakli probirka.

10 minutdan keyin cho'kma filtrlanadi va filtrning o'zida sovuq suv bilan 3-marta, 3-5 tomchi spirit bilan 2 marta yuviladi. Filtrdag'i kristallar olinib quritiladi. So'ngra spiritdan qayta kristallantiriladi. Mahsulot unumi 1 g (86%), erish temperaturasi $207^{\circ}C$.


Anilin sintezi

Asosiy reaksiya tenglamasi:



Reaktivlar: Nitrobenzol ($d= 1,2\text{g/sm}^3$) 24,6 g (0,2 mol), temir kirindisi 45 g (0,9 mol); 3% li HCl 30 ml; NaOH 2 g; NaCl-30 g, dietil efiri 40 ml

Idish va asboblar: tubi yumaloq kolba ($V=500\text{ ml}$), suvli sovitgich; konussimon kolba (250,100 va 50ml hajmli); ajratgich voronkasi ($V=250\text{ ml}$); Vyurs kolbasi ($V=50\text{ml}$) suvli va havo sovitgichi ulangan bug‘ hosil qiluvchi moslama.




28-rasm. Anilinni nitrobenzoldan sintez qilish asbobi:

- 1 - konsentrangan xlorid kislotasi solingan tomizgich voronkasi;
- 2 - nitrobenzol va temir qirindisi solingan kolba;
- 3 - sovuq suvli idish,


Tajribaning bajarilish tartibi: 2-kolbaga 90 ml 3%li HCl va 24,6 g nitrobenzol solib, 45 g Fe qirindisi qo'shiladi. Kolbaga qaytarma sovitgich (4) ulab nitrobenzol xidi yo'qolguncha asta qizdiriladi (4 soat). So'ngra, kolbani (2) 40-50⁰S gacha sovitib 2 g NaOH ni (fenoltalin bo'yicha) ishqoriy muhit bo'lguncha qo'shiladi keyin 2 sxema yig'iladi va suv bug'ida anilin haydaladi (28-rasm). Distillatga natriy xlor (30 g) qo'shib ajratgich voronkasida yog' qismi ajratib olinadi. Suv qismidagi anilin esa efir bilan ekstraksiya qilinadi va asosiy anilin qismiga qo'shib 6 g NaOH solib 18 soat qoldiriladi (NaOH quritgich). Keyin, 3-sxemaga asosan Vyurs kolbasida ekstraktning efir qismi avval suvli sovitgichda, so'ngra anilin esa havo sovitgichda 180-184⁰C haroratlarda haydab olinadi. Unumi -13 g (70%).

29-rasm. Anilinning infraqizil-spektori (IQ) (suyuq plyonka qavati):



α -Nitronaftalin sintezi

Asosiy reaksiya tenglamasi:



Reaktivlar: 2,75 g naftalin 2,25 ml HNO₃ ($d=1,5$), 1,8 ml H₂SO₄ ($d=1,84$), etil spirti, indikator qog'oz.

Ish mo‘rili shkafda bajariladi!


Ishni bajarish tartibi:

Hajmi 100 mlli stakanga 2,25 ml HNO₃ (kons) solib, sovitib turgan holda asta 1,8 ml H₂SO₄ (kons) tomiziladi. So‘ngra 2,75 g maydalangan naftalin oz-ozdan stakanga solinadi. Bunday reaksiyon aralashmaning temperaturasi 50°C oshmasligi kerak. Temperatura oshsa bir oz sovitiladi. Naftalin solib bo‘lingach 60°C da aralashtirib turgan holda 1 soat ushlab turiladi. Keyin reaksiyon aralashma 50 ml sovuq suvi bo‘lgan stakanga qo‘shiladi va bunda suv tagida kulchasimon modda hosil bo‘ladi. Stakandagi suv qismi to‘kiladi. Shu usul 3 marta muhit neytral bo‘lguncha yuviladi. So‘ngra, moddani suvli stakanga solinadi. Bunda qizg‘ish-sariq sharsimon modda hosil bo‘ladi. Keyin buni filtrlab spirtda qayta kristallantiriladi. Suyuqlanish temperaturasi t⁰_{suyuq}=61,5°C. Unumi 2,5 g (67%).

Pikrin kislotasi sintezi

Adabiyot: S.Yu. Shomaxmudova va T.X.Xoldorova. Organik sintezdan praktikum. -Toshkent, O‘qituvchi, 1985. 79 b.

Asosiy reaksiya tenglamasi:



Ish mo‘rili shkafda bajariladi!

Reaktivlar: 1,425 g fenol, 5 ml H₂SO₄ (kons. d=1,8), 3,125 ml (\approx 3,2ml) HNO₃ (d=1,5), etil spirti

Tajribani bajarish tartibi:


100 ml xajmli konussimon kolbada 1,475 g fenol bilan 2,5 ml (kons) H₂SO₄ aralashtirib, suv hammomida 1 soat qizdiriladi. Bunda 2,4-fenil disulfokislota hosil bo‘ladi. So‘ngra reaksiyon kolba suvda sovitilib, unga 3,125 ml (3,2 ml kons) HNO₃ va 2,5 ml H₂SO₄ aralashmasidan oz-ozdan qo‘shiladi (30-rasm).

Reaksiyon aralashma bir kecha qoldiriladi va 30°C da 1 soat suv hammomida 2 soat qizdiriladi. Keyin yana qaynab turgan suv ham-


momida 2 soat qizdiriladi. So‘ngra 65 ml suv qo‘sib sovitiladi. Hosil bo‘lgan kristallar filtrlanadi va suv bilan filtrda yuviladi.

Ajratib olingan kristallarni suyultirilgan C_2H_5OH da qayta kristallantiriladi.

30-rasm. Tajriba o‘tkaziladigan asbob chizmasi:



1-konussimon kolba; 2- kislotalar aralashmasi tayyorlash uchun stakan.



3 va 5 vakuum ostida filtrlash asbobi: 1-voronka; 2-filtr; 3-filtrdan o‘tadigan suyuqlikni so‘ruvchi idish; 4- ehtiyot idishchasi; 5- nasos.


Pikrin kislotosi unumi 3,25g (79%).

Suyuqlanish temperaturasi $t_{suyuq}^0 = 121,8^{\circ}\text{C}$.

Nazorat savollari.

1. Nitrobirikmalar bilan alkilnitritlarning tuzilishidagi farq nimadan iborat?
2. Nitrometanda azotning valentligi va oksidlanish darajasi nimaga teng?
3. To‘yingan uglevodorodlarni Konovalov reaksiyasi bo‘yicha nitrolanganda qanday qonuniyat kuzatiladi?
4. To‘yingan uglevodorodlarni gomolitik nitrolashda qanday qo‘sishma mahsulotlar hosil bo‘ladi?
5. Galoidalkillarga nitrit kislotasining tuzlari ta’sir ettirilganda qanday birikmalar hosil bo‘ladi?
6. Nega nitrobirikmalar kislotali xossa namoyon qiladi?
7. Hamma nitrobirikmalar ham ishqor eritmasida eriydimi? Javobingizni izohlang.
8. Nitroguruh nitroalkan molekulasidagi qaysi vodorodni faollashtiradi?
9. Aminobirikmalar qanday xossani namoyon qiladi? Nima uchun?
10. Aminlar nima asosida birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi deb ataladi?
11. Goffman reaksiyasi bilan faqat birlamchi amin olish mumkinmi? Bekman qayta guruhanishi bilanchi? Javobingizni reaksiya tenglamalini yozib izohlang.
12. Goffman reaksiyasining mexanizmi qanday?
13. Bekman, Lossen va Kursius qayta guruhanishlaridagi umumiylilik nimadan iborat?
14. Bekman qayta guruhanishining sanoatdagi ahamiyati nimada?
15. Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi aminlarda asoslik xossasi qanday o‘zgaradi?
16. Aminlarning qaynash haroratlariida qanday qonuniyat kuzatiladi?
17. Uchlamchi-butilbenzolni nitrat kislota ishtirokida yodlash reaksiyasi mahsulotini nomlang.
18. Propilbenzolning yon zanjirini xlolash reaksiyasi mexanizmini yozing.
19. Xlorbenzolni kons. sulfat va nitrat kislotalar bilan reaksiyasi mahsulot(lar)ini yozing va nomlang.

20. Toluol va boshqa zarur reagentlardan foydalanib, quyidagi birikmalarни sintez qiling.



21. Quyida nomi keltirilgan aromatik aminlarning tuzilish formulalari ni yozing:

- a) anilin b) difenilamin
g) benzilamin d) n-toluidin
v) N,N-dimetilanilin e) o-fenilendiamin


22. Umumiy formulasi C_7H_9N bo'lgan aminlarning izomerlari formulalarini yozing.

23. Quyida keltirilgan reaksiyalar mahsulotlarini yozing va nomlang:

- a) $C_6H_5NO_2 + 2Zn + 4NH_4Cl \rightarrow$
b) $4C_6H_5NO_2 + 3CH_3OH + 3NaOH \rightarrow$
v) $2C_6H_5NO_2 + 4Zn + 8NaOH \rightarrow$
g) $2C_6H_5NO_2 + 5Zn + 8NaOH \rightarrow$

24. Anilinni nitrobenzoldan qanday reaksiya(lar) yordamida ajratish mumkin.

25. Quyida keltirilgan reaksiyalar mexanizmini yozing:



11- LABORATORIYA ISHI

DIAZOBIRIKMALAR VA AZOBO‘YOQLAR


MAVZUSIDAN TAJRIBALAR

Ishning maqsadi: Uglevodorod molekulasi dagi vodorod atomining diazoguruhi bilan almashinuvidan hosil bo‘lgan moddalar – diazobirkimlar va azobo‘yoqlarning tajribada olinish usullari, ularning azoqo’shilish kimyoviy reaksiyalari, azot chiqmasdan va azot chqishi orqali ketadigan reaksiyalar bilan amalda tanishish va ularni fizik-kimyoviy tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar


Diazobirkimlarning umumiy formulasi:




Azobirkimlarning umumiy formulasi $A_r-N=N-A_r$




fenildiazoniy xlorid




fenildiazoniy
borftorid




fenildiazobenzol




para-sulfofenildiazo-4-gidroksibenzol




para-tolildiazoniy bromid




para-nitrofenildiazoniy borftorid




para-fenilazo para-toluol; para-oksiazotoluol




para-bromfenilazo-para-brombenzol




fenildiazogidrat yoki
gidrazobenzol




fenildiazotat




para-xlorfenildiazoniy
xlorid










2,4-dinitrofenil
diazoniyxlorid



Diazotirlash reaksiyasi:





1) Azot chiqishi bilan ketuvchi reaksiyalar



orta-tolildiazoni sulfat

2) Azot chiqmasdan ketadigan (azoqo'shilish) reaksiyalari;
 $C_6H_5N \equiv N^+Cl^- + 2SnCl_2 + 4HCl \rightarrow C_6H_5-NH-NH_2 \bullet HCl + 2SnCl_4$

Fenilgidrazinining vodorod xloridli tuzi




-N=O; >C=O; -NO₂; -N≡N- lar **xromofor** (*Xromos*-rang, **Foreotashiyman**) guruhlari hioblanadi. Shuning hisobiga bu birikmalar ma'lum rangli bo'yoqlardir (**Auksoxrom** -rang kuchaytiruvchi: -OH; -NH₃ va x.k.).

Diazoniy tuzini hosil bo'lish mexanizmi: NaNO₂+HCl→HNO₂+NaCl

β-naftoloranj sintezi

Asosiy reaksiya tenglamasi:



Kerakli asbob va reaktivlar: sulfanil kislotasi -2,5 g; natriy nitrit-1 g; β-naftol-2 g; natriy gidroksidi-2 normalli eritmasi; 4 normalli xlorid kislotasi; natriy xlorid-12 g.


100 ml hajmdagi 2 ta stakan, termometr, filtr qog'oz, Byuxner filrlash voronkasi va vakuumda filrlashga moslashtirilgan Bunzen kolbasi.

Tajribaning bajarilish tartibi. Stakanda 65 ml 2 n NaOH eritmasida 2,5 g sulfanil kislotasi eritiladi. Eritmaga 1 g NaNO₂ va 12 ml suv aralashmasi qo'shiladi. Aralashmani 10°C gacha sovitiladi va 4 n HCl eritmasi aralashmaga cho'kma hosil bo'lgunicha qo'shiladi. Hosil bo'lgan para-diazobenzol-sulfokislotani xona temperaturasida tez

aralashtirgan holda ikkinchi stakandagi β -naftolning ishqorli eritmasiga (25 ml 2 n NaOH ga 2 g β -naftol) qo'shiladi. Bir necha minutdan so'ng sarg'ish-zarg'aldoq rangli cho'kma hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan cho'kma-bo'yoqning suvda eruvchanligini kamaytirish uchun NaCl-12 g qo'shiladi. Cho'kma filtrlanadi va suvda yuviladi.

Mahsulot unumi 4 g (79%-nazariy).


β -naftoloranj (kislotali muxitda zarg'aldoq rang – [n-(2-gidroksi-1-naftilazo)benzolsulfokislotaning natriyli tuzi]) - zarg'aldoq rangli kristall bo'lib, suvda yaxshi eriydi.




31-rasm. β -naftoloranjning UB spektori.

Geliantin (metiloranj) sintezi.

Reaksiya tenglamasi:



Reaksiya mexanizmi:




Tajribaning bajarilish tartibi. Stakanda 5 g sulfanil kislotaning 12,5 ml 2n NaOH eritmasi bilan eritiladi. Keyin esa 2 g NaNO₂ ning 25 ml suvdagi eritmasi qo'shiladi. Aralashmani muz bilan sovitib, 12,5 ml 2 n HCl eritmasi qo'shiladi. Oldindan tayyorlab olingan 3 g dimentilanilinning 25 ml 2 n HCl li eritmasiga tayyorlangan diazobenzolsulfokislotaning natriyli tuzi aralashtiriladi. Hosil bo'lgan aralashmaga NaOH eritmasidan ishqoriy muhit hosil bo'lgunicha qo'shiladi. Sekinasta bo'yoqning **Na-** li tuzi zarg'aldoq jigarrangli holatida cho'kmasi hosil bo'ladi.

Aralashma bir necha soat qoldiriladi. Kristallar filtrlanib, ozgina suv bilan qayta kristallantiriladi. Mahsulot unumi 7 g (57%).

Azot chiqishi bilan ketadigan reaksiyalarga oid tajribalar.

FENOL SINTEZI

Reaksiya tenglamasi:




Tajribaning bajarilish tartibi:

Stakandagi 50 ml suvgan oz-ozdan aralashtirib turgan holda 10 ml H₂SO₄ (kons. D=1,84 g/sm³) asta qo'shiladi. Eritmani sovitmasdan turib toza haydalgan anilindan 9,3 g qo'shiladi. Hosil bo'lgan anilining sulfat kislotasidagi eritmasiga oz-ozdan 75 g muz qo'shiladi. Stakanne tashqi tomonidan ham tuzli muz bilan sovitib turiladi. Bunda cho'kma hosil bo'ladi. Sovitilgan stakandagi eritmaga tomizgich voronkasi orqali tez-tez aralashtirib turib 7 g natriy nitritning 30 ml suvdagi eritmasi tomchilab qo'shiladi. Natriy nitrit eritmasi qo'shilgach yod kraxmalli indikator qog'oz bilan erkin holdagi nitrit kislotasining mavjudligi tekshiriladi. Bunda qo'ng'ir dog' hosil bo'lishi eritmada nitrit kislotasi bor ekanligini anilinning sulfat kislotasi tuzining to'liq eritmaga o'tib ketishidan bilish mumkin.

Eritmadagi fenildiazoniyning sulfat kislotali birikmasi xona temperaturasida asta-sekin parchalanib, azot gazi va fenol hosil qiladi. Bu jarayonni tezlatish uchun eritma tubi yumaloq kolbaga solinib, suv hammomida asta qizdiriladi. Azot gazi chiqishi kamaygach, shu kolbaning o'zidanoq fenol suv bug'i bilan haydab olinadi. Fenolni suv bug'i bilan haydash esa fenolga sifat reaksiya, ya'ni bromli suvda rang yoki cho'kma hosil qilmaguncha davom ettiriladi. Fenol to'liq suv bug'i bilan haydab olingach, olingan massa NaCl bilan to'yintiriladi va fenol efir bilan ekstraktсия qilinadi. Fenolning efirli eritmasi CaCl₂ bilan quritiladi. Qurigach, efir haydab olinadi. Fenol esa boshqa kichikroq kolbada 180-184°C oralig'ida haydab olinadi. Unumi 5-6 g (86%). Toza fenol 183°C da qaynaydi. Sovitilsa kristallga aylanadi.

YODBENZOL SINTEZI

Reaksiya tenglamasi:



Tajribaning bajarilish tartibi:

Stakanda 13 ml xlorid kislotasining 25 ml suvdagi eritmasiga toza haydab olingan 4,7 g anilin qo'shiladi. Eritma muzda 0-1°C gacha sovitiladi. Sovigach, oz-ozdan aralashtirgan holda 4 g natriy nitritning

20 ml suvdagi eritmasi tomchilab qo'shiladi. Qo'shish yod kraxmalli indikator qog'oz ko'karguncha davom etadi. Natriy nitrit eritmasi qo'shilayotganda eritma doimo sovitilib turilishi kerak. Kerak bo'lsa, muzning bo'lakchalaridan eritmaga tashlanadi. Hosil bo'lgan diazoniy tuzi eritmasiga 10 g kaliy yodidning 15 ml suvli eritmasi qo'shiladi va sovitilgan holda qoldiriladi. So'ngra kolbani qaytarma sovitgich ulab suv hammomida asta qizdiriladi va azot chiqishi yo'qolgach, aralashmaga natriy ishqori eritmasidan kuchli ishqoriy muhit hosil bo'lgunicha qo'shiladi (sababi qo'shimcha mahsulot fenolni biriktirib oladi). Keyin yodbenzolni suv bug'i bilan haydab olib, suvdan ajratiladi va CaCl_2 bilan quritiladi. Yodbenzol qurigach, Vyurs kolbasida havo sovitgichi ulab haydab olinadi. Toza yodbenzol $189\text{-}190^\circ\text{C}$ da qaynaydi. Mahsulot unumi 7-8 g (78%).

Nazorat savollari.

1. Alifatik diazobirkimlar nega beqaror bo'ladi va ularning qarorliligini oshirish uchun nima qilish kerak?
2. Diazometanni olish uchun qanday birikma olish va sharoit hosil qilish kerak?
3. Diazometan yordamida anizol va metilatsetat olish reaksiya tenglamalarini yozing.
4. Diazometanning sirkal aldegidi va atsetonlar bilan reaksiya tenglamalarini yozing.
5. Diazometandan metil-uchlamchi butil efirini sintez qiling.
6. Diazometandan metilsiklopropan va 1,1-dimetilsiklopropan sintez qilish sxemasini taklif qiling.
7. Ochiq zanjirli diazometan bilan siklik diazometanning xossalridagi farqni ko'rsating.
8. Diazometanning butin-2 ga siklobirikish reaksiya tenglamasini yozing.
9. Aromatik diazobirkimlarning tuzilishi va nomlanishi.
10. Aromatik diazobirkimlar olishda Gris P. reaksiyasining mexanizmini anilin misolida yozing.
11. Aromatik diazobirkimlarning tuzlarida azot chiqishi bilan ketadigan reaksiyalar: Zandmeyer T., va Meyerveyen X. reaksiyalari.

12. Diazoniy tuzlarining qaytarilish reaksiyalari: tri-bromanilindan tri-brombenzol olish reaksiyası.
13. Aromatik diazobirikmalarining azot chiqmasdan ketadigan reaksiyalari: diazotatlar hosil bo‘lishi; oksidlanish reaksiyası.
14. Aromatik diazobirikmalarining azoqo‘shilish reaksiyası qanday mexanizmda ketadi? Dimetilanilin va fenildiazoniy xloridini azoqo‘shilish reaksiyası misolida tushuntiring.
15. Azobo‘yoqlardagi auksoxrom va xromofor guruhlarning ahamiyati.


12 LABORATORIYA ISHI

**Uglevodorodlar, aminokislotalar, oqsillar, yog‘lar, lipidlar.
Nazariy bilimni hosil qilish.**

Ishning maqsadi: Uglevodorodlar molekulasining turli reagentlar bilan kimyoviy o‘zgarishi, yog‘larning sovunlanish reaksiyalari bilan amalda tanishish va ularni fizik-kimyoviy tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

UGLEVODLAR

Uglevodorodlar tabiatda keng tarqalgan bo‘lib, inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Ular oziq-ovqat tarkibiga kiradi. Insonning energiyaga bo‘lgan ehtiyoji ovqatlanishda ko‘p miqdorda uglevodorodlar qabul qilish hisobiga qondiriladi.




Uglevodlarning ayrim turlari o'simlik hujayralari qobig'i tarkibiga kiradi va mexanik tayanch vazifasini bajaradi Bu turdag'i uglevodlardan kimyoviy qayta ishlash yo'li bilan sun'iy ipak, portlovchi modda va boshqalar olinadi.

Sanoatda uglevodlardan biokimyoviy usul bilan spirtlar, kislotalar, oksikislotalar va boshqa mahsulotlar olinadi. Ba'zi bir uglevodlar va ularning hosilalari dorivor moddalar bo'lib, tibbiyotda qo'llanadi.

Uglevodlarning bizga ma'lum bo'lgan namoyandasasi — glyukoza o'simlik sharbatlarida, mevalarda va ayniqsa uzumda (uzum shakari nomi shundan kelib chiqqan) keng tarqalgan. Glyukoza inson va hayvonlar qonida hamda to'qimalarida doimo mavjud bo'ladi va hujayrada boradigan reaksiyalar uchun bevosita energiya manbai bo'lib xizmat qiladi. Sog'lom inson qonida glyukoza miqdori 0,08—0,11 % ni tashkil qiladi. Ba'zi bir patologik holatlarda, masalan, qandli diabetda, glyukoza siyidik bilan tashqariga chiqariladi.

Uglevodlar o'simliklarda fotosintez jarayonida hosil bo'ladi. Fotosintez (quyosh energiyasi) jarayonini umumiyl ko'rinishda quyidagicha ifodalash mumkin:



Shunday qilib, uglevodlar yig'ilgan energiyaning o'ziga xos kimyoviy «manbai» bo'lib xizmat qiladi. Bu energiya organizmda sodir bo'ladigan uglevodlarning metabolizmi jarayonida ajralib chiqadi:



UGLEVODLAR

Ajralib chiqayotgan energiyaning birmuncha miqdori issiqlikka aylansa, asosiy qismi adenozintrifosfat (ATF) molekulalarida kimyoviy energiya shaklida to'planadi. Ma'lumki, ATF dagi energiya har xil hayotiy jarayonlar (mushaklarning qisqarishi, nerv impul'slarining uzatilishi va boshqalar) uchun sarflanadi.

Uglevodlar sinfi ikki guruhga bo'linadi:


- Oddiy uglevodlar yoki monosaxaridlar (monozalar).
- Murakkab uglevodlar yoki polisaxaridlar (poliozalar).

Gidrolizlanmaydigan va oddiy uglevodlarga ajralmaydigan uglevodlar monosaxaridlar deyiladi. Bu moddalardan ko‘pchiligining tarkibi umumiy $C_nH_{2n}O_n$ formulaga mos keladi, ya’ni ularda uglerod atomlarining soni kislorod atomlarining soniga teng.

Birmuncha oddiy uglevodlar hosil qilish bilan gidrolizlanadigan uglevodlar polisaxaridlar deyiladi. Bu moddalardan ko‘pchiligining tarkibi umumiy $C_nH_{2n}O_n$ formulaga mos keladi, ya’ni ularda uglerod atomlarining soni kislorod atomlari soniga teng emas. Polisaxaridlar o‘z navbatida shakarsimon polisaxaridlar (oligosaxaridlar) va shakarsimon bo‘limgan polisaxaridlarga bo‘linadi. Saxaroza va mal’toza shakarsimon polisaxaridlarga, kraxmal va sellyuloza esa shakarsimon bo‘limgan polisaxaridlarga misoldir.

MONOSAXARIDLAR. MONOZALAR. ODDIY UGLEVODLAR.

Monosaxaridlar kimyoviy jihatdan poligidroksialdegidlar va poligidroksiketonlar bo‘lib, ular molekulasi uchun shoxlanmagan uglerod zanjiri xususiyatlidir. Aldegid guruh saqlaydigan monosaxaridlar ald oz al a r deb atalsa, keton guruh saqlaydigan monosaxaridlar keto z al a r deb ataladi. Oza —qo‘sishimchasi hamma monosaxaridlarning nomi uchun xosdir. Al’dozalarning eng muhim vakili — glyukoza, ketozalarniki — fruktozadir:




Monosaxaridlar uglerod zanjirining uzunligiga (uchtadan o'ntagacha uglerod atomi) qarab trioza, tetroza, pentoza, geksoza, geptoza va boshqalarga bo'linadi. Molekulasida uchta uglerod saqlagan aldotriozaga misol qilib **glitserin aldegid** $\text{CH}_2\text{OH}-\text{CHOH}-\text{CHO}$ ni, ketotriozaga misol qilib esa digidroksiatsetonni $\text{HO}-\text{CH}_2-\text{CO}-\text{CH}_2\text{OH}$ ko'rsatish mumkin. Demak, glitserin aldegid va digidroksiatsetonni monosaxaridlarning eng oddiy namoyandalari deb qarash mumkin. Monosaxaridlardan pentoza va geksozalar tabiatda eng ko'p tarqalgan va muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, monosaxaridlar oksoguruhning tabiatini va uglerod zanjirining uzunligiga qarab tasnif qilinari ekan.

IYUPAK nomlar majmui bo'yicha xohlagan aldopentoza 2,3, 4,5-tetragidroksipentanal deb atalsa, xohlagan aldogeksoza — 2,3, 4,5,6-pentagidroksigeksanal deb ataladi. Biroq, xalqaro nomlar majmui uglevodlar kimyosida amalda ishlatilmaydi. Odatda uglevodlarning tarixiy nomlaridan foydalaniladi.

Tabiatda uchrashi va olinish usullari. Monosaxaridlar tabiatda erkin holda va birikmalar holida uchraydi. Masalan, glyukoza uzum va boshqa mevalar tarkibida ko'p miqdorda erkin holda uchraydi, fruktoza esa glyukoza bilan birgalikda asalda bo'ladi. Biroq monosaxaridlarning nisbatan ko'p qismi polisaxaridlar tarkibiga kiradi.

Monosaxaridlarni olishda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy manba polisaxaridlar gidrolizidir. Masalan, sanoatda glyukoza kraxmalni gidrolizlash yo'li bilan olinadi:




Fizikaviy xossalari. Monosaxaridlar kristall moddalar bo'lib, ko'pchiligi gigroskopik, suvda yaxshi eriydi. Monosaxaridlarning eritmalari lakmusga neytral, shirin ta'mga ega. Ular spirtda yomon, efirda esa mutlaqo erimaydi. Monosaxaridlarning yangi tayyorlangan eritmalari mutarotsiya hodisasini beradi.

Kimyoviy xossalari. Ma'lumki, har bir monosaxarid eritmada har xil tautometr shakllarda bo'ladi. Shuning uchun ham kimyoviy reaksiyalarda reaksiya sharoitiga hamda ta'sir qilayotgan reagentning tabiatiga qarab monosaxaridlarning formulasi u yoki bu shaklda ifodalanadi.

1. Glikozidlarning hosil bo'lishi. Monosaxaridlarning halqali

shakllariga quruq vodorod xlorid ishtirokida gidroksil saqlovchi birikmalar (spirtlar, fenollar va boshqalar) ta'sir ettirilsa, yarimatsetal gidroksilning vodorod atomi radikalga almashinib **glikozidlari** deb ataladigan halqali atsetallar hosil bo'ldi:




Tabiiyki, glikozidlardagi monosaxarid qoldig'i piranoza yoki furanoza hamda α -yoki β -anomerler holida bo'lishi mumkin.


Glyukoza glikozidlari glikozidlari, galaktoza glikozidlari esa galaktozidlari deb ataladi va hokazo. Glikozidlari hayvonot, ayniqsa o'simlik dunyosida keng tarqalgan bo'lib, fiziologik faol moddalardir.

Polisaxaridlar. Polisaxaridlar-gidrolizlanganda juda ko'p miqdorda monosaxarid hosil qiladigan uglevodlarga aytildi. Bunday polisaxaridlardan kraxmal, selluloza va xitinni misol qilib keltirish mumkin.

Kraxmal-muhim ozuqa mahsuloti bo'lib, u α -D-glyukoza qoldiqlaridan tashkil topgan yuqori molekulyar birikmadir. Uning formulasini quyidagicha ko'rsatish mumkin:



Sellyuloza esa yog'ochning tarkibiy qismi bo'lib, u β -D-glyukoza qoldiqlaridan tashkil topgan yuqori molekulyar birikmadir. Demak, uning elementar zanjirida β -D-glyukoza qoldig'i mavjud:




Sellyulozaning molekulyar massasi 20000000 dan yuqori, uning makromolekulasi chiziqli tuzilishga ega. Kraxmalning molekulyar massasi sellyulozanikidan kichikroq va tuzilishi tarmoqlangan bo'ladi.

Kraxmal unda 74%, guruchda 78%, kartoshkada 16% bo'ladi. Kraxmaldan ham, sellyulozadan ham gidroliz qilib glyukoza, glyuko-zadan esa bijg'itish bilan etanol olinadi:




Oksikislotalar tarkibida $-\text{OH}$ gidroksil va $-\text{COOH}$ karboksil guruhi bulgan uglevodorodlardir. Ularning asosligini $-\text{COOH}$ guruhi tashkil qiladi. Atomlilik ekanligini (nechta bo'lishini) $-\text{OH}$ va $-\text{COOH}$ guruhlari tashkil qiladi.


Masalan;




glikol kislota, α -gidroksietan kislotasi yoki etanol kislotasi;




α -aminoetan kislotasi



α -gidroksi propan kislotasi yoki propanol-2-kislotasi
Sut kislotasi;




α -aminoprpan kislotasi
alanin




β -gidroksi moy kislotasi
 β -gidroksi butan kislotasi
 $\begin{array}{c} \text{CH}_3-\overset{\text{OH}}{\underset{|}{\text{CH}}}-\text{CH}_2-\text{CH}_2\text{COOH} \end{array}$


γ -gidroksipentan kislotasi



limon kislotasi




β -aminomoy kislotasi




α,β -digidroksiqaxrabo kislotasi, uzum kislotasi

OKSIKISLOTALARGA XOS REAKSIYALAR:

1) $-\text{COOH}$ karboksil guruhiiga xos reaksiyalar:




2) $-\text{OH}$ hidroksil guruhiiga xos reaksiyalar:




3) Qizdirilganda:

a) Laktid hosil bo‘ladi: (glikol laktidi)




b) To‘yinmagan kislotasi hosil bo‘ladi. Masalan, β -oksimoy kislotasidan kroton kislotasi hosil bo‘ladi:



kroton kislota


4) Sifat reaksiyalari. α -Oksikislotalar FeCl_3 bilan sariq kompleks tuz hosil qiladi:



Sut kislotasi sariq-yashil rangli temir laktidi 1-probirkada FeCl_3 va fenol eritmasi tayyorlanadi va bunda binafsha rang hosil bo'ladi. 2-probirkadagi α -oksikislotadan tomchilatib chayqatgan holda 1-probirkaga sariq rang hosil bo'lguncha qo'shiladi. Hosil bo'lgan aralashmaga toza FeCl_3 0,1 n eritmasidan 0,7 ml va 0,8 ml fenolning suvli (10%) eritmasidan qo'shing. Hosil bo'lgan aralashmaga sut kislotasi dan qo'shing. Yashil-sariq rang hosil bo'ladi.

5) Sut zardobida sut kislotasi borligini aniqlash;
Sut zardobidan olib FeCl_3 va fenolning binafsha eritmasidan qo'shing.
Yashil-sariq rang temir laktidi hosil bo'ladi.

6) Glikol kislotasining olinishi;




α -Xlorsirka kislota (1-xloretan kislota)

Bu tajriba mo'rili shkafda bajariladi


Ishni bajarish tartibi:

Stakanga 0,3g xlorli sirka kislotani 1ml suvda eritiladi va stakandagi aralashmaga 1g bo'r kukuni solinadi va qaynaguncha qizdiriladi. $\text{CO}_2 \uparrow$ -chiqishi tugagach, qizdirish to'xtatiladi. Eritma filtrlanib, tiniq eritmadiagi glikol' kislotasiga xos sifat reaksiyalar qilinadi (32-rasm).


32-rasm. Tajriba o'tkazish (1) va filtrlash (2) asbobi:



7) Sut kislotasiga suyultirilgan (a) va konsentrangan (b) H_2SO_4 tasiri




chumoli kislota, sirkal degidi (asetaldehid)



is gazi


8. Vino kislotasining nordon va o'rta tuzlarini hosil qilish.




Vino kislotasining kaliyli nordon tuzi tabiatda ko'p tarqalgan va gazlamalarga gul bosishda ishlataladi. Bu tuz suvda yomon eriydi. Kaliyli o'rta tuz esa suvda yaxshi eriydi.

Nordon tuz olish: Vino kislotasidan ($2n$ eritmadan) 1 ml, 0,5 n KOH eritmasidan 4 ml va 2 tomchi fenolftalin aralashmasini kolbada chayqatiladi. Cho'kma hosil qilish uchun shisha tayoqcha bilan kolba devorlari qiriladi (ishqalanadi). Natijada gilos rangli cho'kma hosil

bo‘lguncha KOH eritmasi tomchilatib aralashtiriladi. Hosil bo‘lgan cho‘kma quyidagicha formulaga ega:




vino kislotasi suvda yomon eriydigan kaliyli nordon tuz




suvda yaxshi eriydigan kaliyli o‘rtta tuz

SENET TUZINING HOSIL BO‘LISHI;

Vino kislotasining kaliy-natriyli qo‘sish tuzi segnet tuzidir:



1 ml 2 normalli vino kislotasiga 0,5 n KOH dan shisha tayoqchani idish devorlariga ishqagan holda tomizib cho‘kma hosil qilinadi. Olingan cho‘kmaga 0,5 n NaOH eritmasidan cho‘kma erib ketguncha qo‘sib aralashtiriladi va segnet tuzi hosil bo‘ladi.





segnet tuzi

FELING REAKTIVI OLISH:

Segnet tuzidagi OH guruhi vodorod atomlari -COOK va -COONA guruhlari ta’sirida juda harakatchan bo‘lib qoladi. Shuning uchun bu birikma Cu, Fe, Pb, Pd, Os, va boshqa og‘ir metallar bilan kompleks hosil qiladi.


Segnet tuzining Cu⁺² bilan kompleksning ishqorli eritmasi-Feling suyuqligidir. Bu modda aldegidlar va qandlarni oksidlaydi. Buni misning qizil holatiga Cu⁺¹ ga qaytarilishi (qizil cho‘kma) bilan aniqlanadi:



Feling suyuqligi



Limon kislotasidan uning kalsiy va temirli tuzlarini olish

a) Kalsiyli tuzlarini olish. Limon kislotasini 5%li eritmasidan 1ml olib, ustiga 5% NH₃ eritmasidan neytral muhitgacha (lakmus) tomchilatiladi. pH-neytral bo'lgach, 5% CaCl₂ dan 1 ml qo'shiladi. Kalsiy sitrat hosil bo'ladi.




b) Ferrum sitratni hosil qilish. Limon kislotasiga Fe(OH)₃ yoki Fe₂O₃ ta'sir etsa, suvda eruvchi tsitrat hosil bo'ladi (zanglagan dog'larni ketkazadi).

Probirkaga 5% FeCl₃ dan 1 ml va cho'kma Fe(OH)₃ hosil bo'lguncha NH₄OH-5% dan tomiziladi. Cho'kma hosil bo'lgach, 5%li limon kislotasidan 0,5 ml qo'shiladi. Cho'kma yo'qolib tsitrat hosil bo'ladi.



Limon kislotasining H₂SO₄ tasirida parchalanishi:



SOVUNNING HOSIL BO'LISHI.

Ishdan maqsad: Yog‘larning NaOH (ishqor) eritmasi bilan sovunlanish reaksiyasi natijasida sovun olish.


Reaktivlar: Paxta yog‘i, NaOH-40%, NaCl-to‘yingan suvli eritmasi.

Ishni bajarish tartibi;

Chinni chashkaga ($V=250\text{ml}$) 5 gramm yog‘ va 10 ml ishqor eritmasi solib 20-30 minut davomida asta qizdiriladi. Vaqt - vaqt bilan parlanib ketayotgan suv o‘rniga suv solib turiladi. Sovunlanish reaksiyasini tugaganini tekshirish uchun reaksiyon aralashmasidan ozgina olib, issiq suvgaga solinadi va qizdiriladi. Agar suv yuzasida yog‘ hosil bo‘lmasa sovunlanish to‘liq ketgan bo‘ladi.

Reaksiya tugagach, reaksiyon chashkaga NaCl to‘yingan eritmasi qaynoq holda 15 ml qo‘shiladi.

Sovitilgach, suyuqlik yuzasida sovun qotadi:



Sovunning gidrolizi:

Ishdan maqsad: Sovunni gidroliz qilib undan yog‘simon kislotalarni ajratib olish.

Ishni bajarilish tartibi:


